

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
"BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI"
KAFEDRASI**

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Pedagogika fakulteti dekani _____

" _____ " _____ 2016 yil

5111800 – "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bitiruvchisi
Allaqova Oliyajon Reyimberdiyevnaning
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**"MUDIRA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASININIG
RAHBARI SIFATIDAGI KO'P QIRRALI FAOLIYATI"
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Katta o'qit. Xujaniyozova O.

Urganch 2016 yil



Mavzu: MUDIRA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING RAHBARI SIFATIDAGI KO'P QIRRALI FAOLIYATI.

Reja

I-BOB. Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining rahbari.

1.1 Mudira tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.

1.2 Mudira ishining mazmuni va uni rejalashtirish.

II-BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasi murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi ro'li, faoliyati ko'p qirralidir.

2.1 Mudiraning jamoatchilik, mahalla qo'mitasi hamda ot-onalar bilan hamkorligi ishi mazmuni.

2.2. Rahbarlik nazorat qilish va yordam berishdir.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.



Kirish.

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakat mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma'naviy – axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Zero, sog'lom avlod va uning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta'minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Sog'lom avlod” davlat dasturi mazmunida o'z aksini topgan g'oyalar insonni intellektual va ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash, bo'lajak Mudiralarda sog'lom shaxsni tarbiyalash va madaniyatini shakllantirish imkonini beruvchi eng maqbul yo'l ekanligini ifoda etadi. Yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularda mafkuraviy va jismoniy jihatdan xavfli sanalgan salbiy odatlarning qaror topishini oldini olish, ularga qarshi kurashuvchanlik immunitetini hosil qilish, pedagogika nazariyasi va amaliyotida keng ko'lamda tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolardandir.

Mavzu doirasida qator ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligiga qaramasdan, tadqiqot olib borilishini taqozo etgan mazkur muammoning dolzarbligini quyidagi omillarni belgilaydi:

- ijtimoiy – siyosiy omil. Tarixiy xronologik manbalarni o'rganish natijasida shunday to'xtamga kelish mumkin: inson mavjud ekan, uning hayoti va salomatligi muhofazasini ta'minlash dolzarb ijtimoiy masalalardan biri sifatida e'tirof etilib, mazkur muammoga o'sha davr ehtiyojiga ko'ra o'ziga xos tarzda yondashilgan. Jamiyatda sog'lom bolalarni tarbiyalash o'sib kelayotgan yoshlarni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hattoki, Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasining 12 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida xalqning sog'lom va farovon hayot kechirishini asosiy sharti insonning "...hayot tarzini, hayot kechirishini to'g'ri tashkil qilishi, o'z salomatligiga bo'lgan oqilona munosabatidir" deya ta'kidlab, sog'lom bolalarni tarbiyalash va madaniyatini jamiyat a'zolari ongida qaror toptirish kechiktirib bo'lmaydigan muammo ekanligini qayd etgan holda – 2005 yilni mamlakatimizda "Sihat – salomatlik yili" deb e'lon qildilar.

Mudira - maktabgacha ta'lim muassasasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog uning faoliyati maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli xal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy pedagogik va gigienik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart -sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik maqsadga qaratilgan va inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida-davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik tamoyillik o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik. Bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqei mudira o'z g'oyaviy, ma'naviy ma'rifiy, siyosiy – huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim - tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga va o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U dastur metodik instruktiv, normativ xujjatlarni yaxshi bilishi va ularga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yetuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralari ko'rishi lozim.




Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri Xalq ta'limini boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 3 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan yoki o'rta mahsus ma'lumotiga va 5 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida qadrlarni tanlash joy-joyiga qo'yish tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faol ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari qadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam uyishtirib borishiga g'amxo'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha talim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar rezervi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi.

Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining butun faoliyatiga rahbarlik qilib, u maktabgacha ta'lim muassasasini obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarini to'g'ri taqsimlash, muassasasini oziq - ovqat moddalari bilan ta'minlash rejimini to'g'ri tashkil etish rejasida maktabgacha ta'lim muassasasini bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, taomnoma sifatini vitaminga boy bo'lgan moddalar bilan ta'minlashi (kamida haftada 2 marta) xamirli ovqatlari (bulochka, pechenye). Pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularni malakasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir.

Mudira bolalar hayotini saqlash muhofaza qilishi uchun bolalar muassasasida to'g'ri rejalari, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigienik qoidalarining bajarilishiga, tadbirlar o'tkazadi. Qishga oziq-ovqat mahsulotlarini jamlaydi. Vitaminga boy bo'lgan mevali o'simliklarni o'stiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari o'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlanadi.



Mehnatga ishchilarning intizomiga qat'iy rioya qiladi. Ish yuritish qattiq nazorat qilinadi. Katta xodimlar bilan o'z vaqtida ta'minlaydi. Aktiv xodimlarni rag'batlantiradi. Mudira maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan joriy kapital remontga bosh rahbardir. Zavxoz, kladoovshik, kir yuvuvchi, kastilyansha, bog'bon, duradgor, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik, shafyor bilan yakka - yakka suhbat o'tkazadi. Ularning ishlari ustidan qat'iy nazorat tashkil etiladi.

Mudiraning tashkiliy - pedagogik ishlarini rahbarligi.

Tashkiliy - pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi.

- 1). Bayram ertaklarini o'tkazish va rahbarlik qilish.
- 2). Ochik tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va taxlil qilish.

Masalan, ochiq mashg'uloti, sayrlarni kuzatish.

3) Xalq ta'limi bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-kurslarga qatnashishi, yil tarbiyachisi, sanat bayrami, sport bayramlarini o'tkazish.


Mudiraning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlariga rahbarligi quyidagilar:

a) har bir guruhdagi ta'lim- tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va taxlil qilish, tarbiyachining ish xujjatlarini o'rganish va taxlil qilish guruhning ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi, diagnostika daftari: bu o'tkazilgan ishlarning xisobotidir.

b) guruhning jixozlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

Mudira kvartalda birinchi Mart kuni umumiy ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majlisni ota-onalar komitetining raisi olib boradi yoki yordam beradi. Mudira 1 haftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo kamchiliklar bilan bolalar tarbiyasiga oid muammolar hal etiladi.

Mudiraning jamoatchilik va mahalla komissiasi bilan ish metodlari quyidagi tarzida amalga oshiriladi:



1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun konferensiyalar.

2. Ota-onalar universitetlari. Bunda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, xalq ta'limi bo'limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar Universitetning asosiy maqsadi: Davlat va jamiyatimiz tomonidan oila va bolalar tarbiyasiga masalalari va kamchiliklarini, muammolarini hal etishdan iborat. Mudira tashkiliy tegishli maktab bilan aloqa o'rnatib 1 yilga mo'ljallangan reja asosida ish ko'radi. 1- yilga mo'ljallangan reja asosida maktabgacha ta'lim muassasasi vazifalari, maktab tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar choralar, bolani maktab ta'limiga tayyorlash, lotin alifbosi o'qish yozish, mukammal o'rganish. Bunda Mudira va maktab direktorining vazifalari belgilanadi.

a) ma'muriy xo'jalik faoliyat – bunda reja kontingenti bo'yicha bolalarni joylashtirish, maktabgacha ta'lim muassasasi dasturining maktabgacha ta'lim tizimiga belgilangan xarajatlarni o'z vaqtida joy – joyiga qo'yib ishlatishni tashkil etish, bolalarni ovqatlantirishini to'g'ri tashkil etish, yozgi sog'lomlashtirish sezonlarini tashkil etish, xizmat qiluvchi xodimlarni to'g'ri joylashtirish va ishlash malakalarini oshirish, mehnatni ratsional ravishda tashkil etishdan iborat.

Mudira maktabgacha ta'lim muassasasiga kerakli texnikaviy va xo'jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turish, binoni jihozlash bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlash, binoni o'z vaqtida remont qilish va o'quv-ko'rgazmali qurollari bilan to'ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dastur – metodik xujjatlarda tavsiya etilgan ularning fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnatni estetik tarbiyalash maqsadida bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlash, bolalar maydonchasi va uchastkasini to'g'ri rejali jihozlash, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishlash stajiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, vrach bilan birgalikda meditsina ishlarini nazorat va bolalarni sistemali meditsina ko'rigidan o'tkazish ishlari kiradi.



Moliyaviy-xo'jalik va boshqa faoliyati, jamoada ijodiy ma'naviy-ruhiy muhit yaratilishi uchun qonunda belgilangan tartibda shaxsiy javobgardir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining mudiri amaldagi qonunchilik doirasidagi maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik xodimlari va ma'muriyatini ularning kasb-kor va mansab faoliyatlariga asossiz aralashuvga chek qo'yuvchi zarur choralar ko'radi; maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasiga nisbatan ma'muriy-buyruqbozlik urinishlariga uning mustaqilligini cheklovchi buyruqlarga chek qo'yadi; shu masalalar bo'yicha tegishli organlarga murojat qiladi.

Mudira ishonch qog'ozisiz maktabgacha ta'lim muassasasi nomidan harakat qiladi, barcha shuhrat va jamoat korxonalari, muassasalar va tashkilotlarida uning manfaatini himoya qiladi; kreditlar tarqatadi; shartnomalar tuzadi, ishonch qog'ozlarini beradi, banklarda xisob va boshqa schotlarini ochadi; maktabgacha ta'lim muassasasi uchun zarur bo'lgan jihozlar va boshqa moddiy resurslarni xohlagan korxonalardan, tashkilotlardan, suhbatlardan va ayrim shaxslardan naqd pulga yoki pul o'tkazish yo'li bilan ijaraga olish va buyurtma berish xuquqiga ega.

Mudira maktabgacha ta'lim muassasasi xuquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko'rsatma beradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xodimlari uchun majburiydir. Tarbiyachi-metodist, katta medodist xamshirasi, xo'jalik mudirining o'z xuquqlari doirasida bergan ko'rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat: Ma'muriy guruh (mudir, tarbiyachi-metodist, xo'jalik mudiri, katta meditsina hamshirasi), pedagogika, meditsina, xizmat ko'rsatish tarmoqlari hodimlari.

Maktabgacha tarbiya muassasasi ma'muriyati har bir tarkibiy birlikka tegishli moddiy resurslarni berkitadi. Mudira mehnat jamoasi vakolatini amalga oshirishning asosiy shakli umumiy yig'ilishidir.



Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavini ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

maktabgacha ta'lim muassasasi kengashini tuzish zarurligini aniqlaydi, kengash tarkibini va uning raisini saylaydi;

yillik va istiqbol rejalarini muhokama qiladi va tasdiqlaydi, uning bajarilishi haqida ma'muriyat xisobotini eshitadi, pedagogik va xizmat ko'rsatish mehnatining samaradorligini oshirish yo'llarini belgilaydi;

Jamoa shartnomasini muxokama qiladi va kasaga uyushmasi qo'mitasiga taqdim etadi.

Tadqiqot maqsadi: Maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lajak tarbiyalanuvchilarni kutib olmoqda va tarbiyalamoqda. Ta'lim va tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning yaxlit tizimini ishlab chiqish va uning amaliyotdagi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar yaratishdan iborat. Talabalarni mehnatini ongli ilmiy asosda tashkil etish uslub va uslublari bilan qurollantirish. Muassasada ta'lim-tarbiyaviy moliyaviy xo'jalik metodik ishlarini tashkil etish va rahbarlikga o'rgatish.

Tadqiqot ob'ekti: Bo'lajak Mudiralarning ish rejaları madaniyatini shakllantirish jarayoni.


Tadqiqot predmeti: Mudira tarbiyachilarga sog'lom bolalarni va barkamol shaxsni tarbiyalashni ularni madaniyatini shakllantirishni va malaka ko'nikmalarini rivojlantirishni mazmuni, shakl, metodlarini ishlab chiqishi.

Tadqiqotning vazifalari:

-Mudira katta tarbiyachi hamdir, u ko'p qirrali faoliyatini o'rganilganlik muammosini ilmiy-nazariy, metodik manbalarga tayangan holda dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;

-Mudira sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishni ta'minlashning amaliyotdagi mavjud ahvolini o'rganish;

-xalq pedagogikasida, Sharq mutafakkirlarining merosida sog'lom turmush madaniyati haqidagi g'oyalar, O'zbekiston hukumati tomonidan sog'lom



avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ilmiy-pedagogik o'rganish;

-Mudira sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish, o'zining natijalarini tajriba-sinov orqali aniqlashi;

Tadqiqot metodlari:

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanildi: siyosiy, falsafiy, tarixiy, etnografik, pedagogik, psixologik, huquqshunoslik va madaniyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish; pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovlari; testlar; tajriba-sinov; matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi: Sharq mutafakkirlari merosi va xalq pedagogikasida sog'lom avlodni voyaga yetkazish, sog'lom turmush madaniyati to'g'risidagi ta'limotlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi g'oyalari, hukumat hujjatlari, o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning g'oya va qarashlari tadqiqotning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:


- Bo'lajak mudiralarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosini ilmiy-nazariy, metodik manbalarga tayangan holda dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslandi;

-Mudira sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishni ta'minlashning amaliyotdagi mavjud ahvolini o'rganish;

-Mudira o'ziga qo'yilgan talablarni shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishi, uning natijalarini tajriba-sinov orqali aniqlandi; Yillik rejasi.



Tadqiqot tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi bet.



I-BOB Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining rahbari


1.1. Mudira tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi natijasida jamiyat hayotining turli sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar mustaqil fikr egasi bo'lgan, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erkin holda erishishga qodir, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish va kamol toptirish bilan bog'liq muammolarning hal qilish zaruriyatini vujudga keltirdi. Yangi g'oyalar qaror topayotgan jamiyatda shakllangan zamonaviy ta'lim-tarbiya konsepsiyasi mazmunida bir tomondan shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa, mustahkam asab tizimiga ega, jismonan hamda ruxan tetik bo'lgan talaba yoshlarni tarbiyalash va ularning salomatligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, erkin, demokratik jamiyat qurish, jamiyat ma'naviyatini yangilash, davlat va ijtimoiy qurilish sohalarida yuqori natijalarga erishishda sog'lom turmush madaniyatini targ'ib qilishda yosh avlodning, qolaversa butun millatning sog'lig'ini asrash muhim masala sifatida o'rganilib kelingan.

Maktabgacha tarbiya muassasasi mudiri xalq ta'limi boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga ega va uch yildan kam bo'lmagan pedagogik stajiga ega bo'lgan yoki o'rta maxsus ma'lumotga va besh yildan kam bo'lmagan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha tarbiya muassasasi kengashining faol ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Kadrlarni tanlash chog'ida maktabgacha tarbiya muassasasi rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining 1991 yil 3 avgustdagi 205 – sonli Qaroriga; maktabgacha tarbiya muassasasi Ustaviga amal qiladi. Bunda



da`vogarlarning shaxsiy sifatlari va tanlagan sohaga moyilliklari inobatga olinadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi ma`muriyati jamoat tashkilotlari bilan xamkorlikda o`z-o`zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo`lgan turgan mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni o`zini muntazam takomillashtirib borish, pedagogik va xizmat ko`rsatish mehnati samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o`z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish xissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi rahbarlari qadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta`lim mahoratini, umumiy ta`lim va madaniy darajasini muntazam o`stirib borishga g'amxo`rlik qiladi; xodimlar malakasini xisobga olgan holda va maktabgacha ta`lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o`z vaqtida joydan-joyga ko`chirib turilishini ta`minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma`muriyat ruxiy-pedagogik o`quvchining xuquqiy va iqtisodiy o`quv rejasini o`rganib uyg'unlanishini ta`minlaydi; xodimlar malakasini bevosita maktabgacha ta`lim muassasasida oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa aralash fanlar erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma`muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta`lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadan o`tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta`minlaydi, ularga o`z vaqtida zarur metodik yordam ko`rsatadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasida kadrlar rezervi shakllantirilib, ular bilan ish olib boriladi.

Tarbiyaviy-ta`limiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida umumiy yig'ilish qarori bilan maktabgacha ta`lim ishini metodik jihatdan to`g'ri rejalashtirish, maqsadida yillik reja tuziladi. Bolalar muassasasining yillik plani xukumatning xalq maorifi va maktabgacha ta`lim sohasidagi qarorlariga hamda Xalq ta`limining dastur-metodik xujjatlariga muvofiq ravishda tuziladi.



Yillik reja – maktabgacha ta`lim muassasining istiqbol faoliyatini aks ettiruvchi asosiy xujjatidir.

Unda pedagog va xizmat qiluvchi xodimlarning ishlarini tashkil etish masalalari aniqlanadi. Yillik reja tuzishda maktabgacha ta`lim muassasining hamma kollektivi ishtirok qiladi.

Yillik reja har bir o`quv yiliga sentyabrdan-sentyabrgacha tuziladi.

Rejani profsoyuz va komsomol tashkiloti, partiya, ota – onalar komiteti, maktab bilan kelishilgan holda rejalashtiriladi. Yillik rejaning kirish qismida o`tgan o`quv analiz beriladi, muassasaning ahvoli to`g`risida tushuncha beriladi. Har bir bo`limni alohida analiz qilinadi, qanday ishlar bajarildi, yo`l qo`yilgan kamchiliklarning sababi, nimalarga erishildi, batafsil qilinadi.

2 - qismida yangi o`quv yiliga vazifalar qabul qilinadi, vazifalar qabul qilishda maktabgacha ta`lim muassasining ishini xisobga olib, hamda pedagogik kollektivning ishlash qobiliyatlarini, har bir pedagogning kuchli va kuchsiz tomonlarini xisobga olib, aniq to`g`ri rejalashtiriladi.

3 - qismida – yil davomida o`tkaziladigan tashkiliy ishlar rejalashtirilib, bular « maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiya dasturi»ni bajarilishini, belgilangan vazifalarni aniq bajarishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Yillik rejada asosiy tashkiliy ishlar: pedagogik kollektivning g`oyaviy-siyosiy hamda pedagogik onglarini oshirish;

Metodik ongni o`stirish; (pedagogik kengashlar, konsultatsiyalar) ilg`or tajribalari, pedagogik tajriba almashinish: turli faoliyatlarni nazorat qilish va muhokama qilish, metodik kabinetni jihozlash, dasturini talablarning bajarilishi nazorat qilish, ota-onalar bilan ishlash (umumiy va guruhlar ota-onalar majlislari, leksiya va konsultatsiyalar, ko`rgazmali tashviqot ishlari);

Ma`muriy-xo`jalik faoliyat - (binoni remonti, mebellar va boshqa atributlarni remont qilish, ko`chatlar ekish, sport maydonchasi, badantarbiya jihozlarini sotib olish, bolalar xayotini saqlash va muxofaza qilish ishlari);



Xizmat qiluvchi xodimlarning – g'oyaviy-siyosiy onglarini, ishlash malakalarini oshirish;

Ishlarini-vazifalarini yil davomiga bir tekis taqsimlash, ish bajaruvchi shaxslar, muddati, xajmi –belgilanadi. Muassasaning har bir xodimi biror bir ma`ruza tashkiliy ishlar bilan qatnashishi kerak. Yillik rejada kasbga uyushma qo`mitasi, ota-onalar komiteti, meditsina xodimlarining (maktabgacha ta`lim muassasasi vrachi va hamshiraning) yillik rejalari aks etadi, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, maktab bilan maktabgacha ta`lim muassasasining aloqasi planlashtiriladi. Pedagog hodimlarning malaka oshirish rejasi ham yillik rejada aks etadi.


Yillik plan pedagogik kengash muhokama qilinadi va kollektiv tomonidan ko`rib chiqiladi va yuqori maorif organlari (tuman XTB, shaxar XTB, Viloyat XTB va x.k.)ning maktabgacha tarbiya inspektori-metodist tomonidan tasdiqlanadi. Yillik reja xodimlar foydalanishlari uchun qulay bo`lgan joyda saqlanadi. Yillik reja barcha vazifalarni bajarishda muassasaning hamma xodimlari javobgardirlar.

Mudiraning metodik ishlarga rahbarlik metodik ish formalaridan quyidagilar:


- 1) Pedagogik kengash.
- 2) Seminar, seminar mashg'ulot.
- 3) Medika pedagogik kengash.
- 4) Ochiq tadbirlarni tashkil etish.
- 5) Yakkama-yakka ishlash.
- 6) Jamoa tariqasida maslahat

Maktabgacha ta`lim qatnashchilarining lavozimi huquqlari va majburiyatlari, ularning boshqaruv vakolatlari va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining qonuni xujjatlari, tegishli me`yoriy xujjatlar, ta`lim muassasasi Ustavi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasining xujjatlari.



«Maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi»ga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasida muayyan xujjatlar olib borilishi kerak. Buyruqlar daftari maktabgacha ta'lim muassasasining tartib nomeri berilgandan keyin rasmiylashtiriladi. Uning hamma sahifalari nomerlanadi, oxirida uning necha varaqligi ko'rsatiladi. Bolalarni xisobga olish daftari (Forma DP-2) bolalar va ota-onalar haqidagi ma'lumotlarni, bolalarning uy adresi, maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan va undan ketgan (butunlay) sanalarini o'z ichiga oladi. Har bir guruhda bolalarning har kungi (maktabgacha ta'lim muassasasiga kelishi) xisobga olinadi. (Forma DP-3). Shuningdek, xodimlarning, bolalarning shaxsiy delolari meditsina kartalari; xodimlarning ish grafigi, ularning ish vaqtini xisobga olish tabeli; maktabgacha ta'lim muassasasiga yo'l-yo'riq beradigan, uni tekshiradigan va reviziya qiladigan kishilarning mulohaza va takliflarini yozish daftari; sanitariya jurnali; pedagogika, ishlab chiqarish yig'ilishlari va ota-onalar majlislarining bayonnomalari; inventar va oziq-ovqat mahsulotlarini xisobga olish daftari; muassasaning yillik ish rejasi va boshqalar olib boriladi.



1.2 Mudira ishining mazmuni va uni rejalashtirish.

Mavjud manbalar mohiyatini o'rganish jamiyatimizning ilk davrlaridayoq sog'lom turmush madaniyatini qaror toptirish, mavjud turmush madaniyati darajasini belgilovchi mezonlarni yaratishga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj mavjud bo'lgan.


Yosh mudira maxsus ma'lumotga, ega pedagogik stajga ega bo'lgani uchun maktabgacha ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish qanday tashkiliy qismlardan tashkil topganini tasavvur qila oladi. Shuningdek, bu haqda u pedagogik adabiyotlar va metodik xujjatlar orqali ham yaxshi xabardor. Bir so'z bilan aytganda *u* nima ishlar qilishi kerakligini aniq, ammo, maktabgacha ta'lim muassasasining bo'lajak rahbari sifatida muassasaning barcha zvenolariga rahbarlikni. qanday amalga oshirishni anglab olishi ancha murakkabdir. Rahbarlik mahorati bir necha yillar davomida shakllandi. Biroq vaqt o'tishi bilan, ko'rib-bilib, xato qilib, tuzatib va oqibat pirovardida yaxshi rahbar bo'laman deyish kechirilmaydigan xatodir. Tarbiyaning eng yaxshi traditsiyalariga tayanib, maktabgacha ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish «texnologiya»sini tezroq izlash. Siz ertadan boshlab maktabgacha ta'lim muassasasiga mudirasiz. Eng murakkab tomoni shundaki, sizga o'z ortingizdan pedagogik kollektivni ergashtirishga, bolalar va kattalarning tarbiyachisi bo'lishga to'g'ri keladi. Siz o'z g'ayratchanlik va tashabbuskorligingizni kollektivdagi barcha xodimlarga yetkaza olasizmi, ularga pedagogik matonat poeziyasining go'zalligini ko'rsata olasizmi? Chunki bu siz pedagogdan doimo ijodiy izlanishni talab qiladigan tarbiyalarida fikr yuritish mumkin emas.

Sizga o'zingiz pedagog bo'lib ishlagan maktabgacha ta'lim muassasasida rahbarlik qilishga to'g'ri kelib qolsa, bunga qanday qilib erishish mumkin (yangi vazifa xodimlarini sizga yangicha nuqtai nazardan qarashga majbur qiladi)? Shuningdek, agar sizga o'z munosabat formalari tarkib topgan, o'z an'analariga ega bo'lgan notanish kollektivga mudiralik qilishga to'g'ri kelgan taqdirdachi? Mabodo yangi maktabgacha ta'lim muassasani ochish, unga mustaqil ravishda



kadrlar tanlash o'zingizga qolsa, bu xolda nima qilish kerak? Ba`zan rahbarlik ishining ayrim uchastkalari asossiz ravishda ikkinchi darajali sanalib, rasmiyat uchun xo'ja ko'rsingagina bajariladi. Masalan, siz yillik plan tuzdingiz. U amaliy ishlanma bo'ladimi yoki faqat formal zarurat uchunginami? (Afsuski, hali ham ayrim kishilar plan tekshiruvchilargagina kerak deb tushunadilar.) Bu faqat planning mazmuni va aktualligiga emas, balki uni bajarish uchun xodimlarni safarbar qilishingizga ham bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi ishning barcha zonalarini boshqarishda nafaqat tashkilotchi (ba`zilar o'z funksiyalarini xuddi shunday tushunadi), balki birinchi navbatda, bolalarning pedagog va murabbiysi, tarbiyachilarning yordamchisi va ustozidir. Uning vazifasi nazorat qilishgina emas, balki chidam bilan tushuntirishni, o'rgatish hamdir. Eng muhimi, pedagogik kollektivni birgalashib tarbiya vositalari va yo'llarini yaxshilash yo'lida o'ylashga o'rgatishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim muassasasining har bir a`zosi umum ishning ishtirokchisi, topshirilgan ishga masuliyatli shaxs hisoblanadi. U biron ish yuzasidan mudiraning aytishini, eslatishini kutib turmasdan, shaxsiy tashabbus ko'rsataveradi. Ma'lumki, har bir ishning boshlanishi qiyin. Birinchi kun kattalar uchun dam, bolalar uchun dam mas`uliyatli kun bo'ladi. Birinchi kundan yaxshi taassurot qoldira oladimi? Bu kun jihatdan maktabgacha ta'lim muassasasini kichkintoylarni qabul qilishga tayyorlashda, unda saranjomlik va yaxshi sharoit yaratish uchun barcha xodimlar kuch-g'ayratini safarbar qilishda mudiraning tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liq. Har bir pedagog rahbar faoliyatining diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Rahbar tarbiyachilarga yordam beradi, bolalarni uyi va onasi haqidagi xomush o'y-xayollaridan uzoqroq tutgan holda nimalar bilan shug'ullantirish haqida tavsiyalar beradi. Yangi bolalar maktabgacha ta'lim muassasasini ochishga tayyorgarlik ko'rishda va uning dastlabki ish kunlarida mudiraning rahbarligi nimalardan iborat bo'lishi kerak? Bu davrda yosh rahbar o'z ishining eng muhim masala nima, asosiy diqqat-e`tiborni nimaga qaratish kerak, xodimlar qanday



yordamga muhtoj kabi masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lmaydi va shu tufayli ancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Chunki hamma narsa (bolalar bilan xodimlarning o'zaro munosabati, kattalar, pedagoglar, ota-onalar o'rtasidagi munosabat) qaytadan barpo qilinayotgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish, shubhasiz, mudiraning undan oldingi rahbarligidan farq diladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudira faoliyatining bosh masalasi — maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlariga metodik rahbarlik qilish markaziy o'rinni egallaydi.

Pedagogik ijodiy mehnatga havas uyg'otish uchun yosh rahbar nima ishlar qilishi lozim? Bu yerda nafaqat tegishli moddiy sharoit yaratish, balki, shu bilan birga bir har tarbiyachida bolalar bilan ish olib borish va yaxshi natijalarga erishishda hamma vaqt, o'z metodini takomillashtirishga havas uyg'ota bilish muhim ahamiyatga egadir. Mudira yaxshi pedagog bo'lib, zamondoshimiz hayotidagi ideallarni o'z aloqasi bilan hammaga ibrat qilib ko'rsata olsa, maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogik kollektivi unga tenglasha olsa, o'shandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Mudira tarbiyachilarga bolalarni tushuna bilishni o'rgatadi. Pedagogning shakllanishi ana shundan boshlanadi. Agar u bolani o'z ruxiy olamini tushunishga harakat qilmas ekan, xech qachon o'z ishining ustasi bo'la olmaydi. O'z kasbiga muhabbat shundan boshlanadi. Pedagogik kollektivni tarbiyalashga mudira qanday erishadi? Kitobda bir necha misollar keltiramizki, bu misollar asosida kitobxon o'ziga kerakli xulosalar chiqarib oladi.

Metodik rahbarlikni amalga oshirish — bu tarbiyachilarga beradigan yordamni ularni o'rganish va nazorat qilish bilan qo'shib olib borishdir. Amalda ko'pincha yosh rahbar, o'zining ma'muriy ishlariga o'ralashib qolib, pedagoglarga o'rgatish, o'z vaqtida yordam ko'rsatishga yetarli ahamiyat bermaydi. Boshlovchi rahbarni bunday xatolardan ogoh qilish juda muhim. Kitobdan siz



nazorat bilan yordamni qo'shib olib borishga qanday erishish mumkinligini bilib olasiz.

Pedagoglarga nisbatan talabchanlikni amalga oshirishda ularning har birida bo'lgan imkoniyatni hisobga olish zarur. Tarbiyachi pedagogik mahoratining o'sishiga asos qilib ana shunday talabchanlik olinadi. Tarbiyachilarning oila bilan olib boradigan ishini qanday yo'naltirish kerak? Bunda mudiraning ro'li nimadan iborat bo'lishi lozim? Tarbiyalanuvchilar oilasiga birinchi marta borayotgan, gruppada tarzida bo'ladigan kontasiyada va yig'ilishda so'zga chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan yosh pedagogga beriladigan yordam qanday bo'lishi kerak? Uni qanday xatoliklardan ogohlantirish zarur? Yosh ota-onalar qanday yordamga ehtiyoj sezadilar va bu yordamni qanday tashkil qilish mumkin? Bu va boshqa ko'pgina masalalar yosh rahbarni o'ylatib qo'yadi.

Qo'llanmadan siz nafaqat nima ishlar qilish lozimligi haqidagi savollar (buni odatda har bir mudira biladi)ga javob olasiz, balki, shu bilan birga bu ishlarni qanday amalga oshirish yo'llarini ham bilib olasiz deb ishonamiz.

Maktabgacha ta'lim muassasasini shahar tashqarisidagi mahsus boshqa (dacha) ko'chirib chiqishda mudira oldida qanday vazifalar turadi? Kimga o'z faoliyatida bu ishni amalga oshirishga to'g'ri kelmagan bo'lsa, u binoni, bolalar, xodimlar kollektivini, ota-onalarni bu ishga tayyorlashni nimadan boshlash lozimligini bilmaydi.

Rahbar tarbiya perspektivasini qanchalik aniq tasavvur qila olsa, ishning muvaffaqiyati ham shunchalik ravshan bo'ladi.

Biz aminmizki, yosh mudirada tarbiya sohasida yangi bilimlar olishga izlanish, o'z faoliyatini pedagogik jihatdan qanchalik maqsadga muvofiqligini taktil qilish istagini uyg'otadi. Partiya manfaatlari esa maktabgacha ta'lim muassasasi barcha uchastkalari faoliyatiga rahbarlik qilish sifatini muntazam ravishda o'sishi va halol topishini talab qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarligiga birinchi marta tayinlangan pedagogda qanchalik hayajon, qanchalik mas'uliyat paydo bo'ladi. Unga shu paytgacha bolalar kollektiviga rahbarlik




qilishga to'g'ri kelgan bo'lsa, endi u bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidagi hamma tarbiyalanuvchilar uchun nafaqat yaxshi pedagog bo'lishi, balki tarbiyalanuvchilarga ustozlik qilishi ham kerak.

Endi katta yoshdagi kishilar bilan muloyim va ularning izzat-nafsiga tegmay muomala qilishda norozilik bo'lmasligi alohida pedagogik bilim zarur.

Xodimlar kollektivi o'rtasida o'z o'rnini qanday topishi kerak? Muassasaga rahbarlikning bironta zvenosi ham nazardan chetda qolmasligi uchun mudira o'z ish vaqtini qanday planlashtirishi va taqsimlashi lozim? Tarbiyaga rahbarlik qilishda bosh vazifa nimadan iborat? Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari va barcha xodimlari o'zlarining kuch va bilimlarini eng muhim ish — bolalar ta'lim va tarbiyasiga ijodiy sarflash uchun qanday sharoit yaratish kerak?

Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini yo'naltirish mudiradan pedagogik mahorat hamda xo'jalikni o'quv bilan boshqarishni talab qiladigan murakkab ishdir. Mudira bolalar bilan olib boriladigan barcha ta'lim- tarbiya ishlarga, shuningdek pedagoglar bilimini oshirishga, ularning siyosiy-madaniy o'sishiga rahbarlik qiladi; texnik xodimlar ishini yo'naltiradi; bolalarning baxtiyor hayoti, ularning tarbiyasi va sog'lom o'sishi uchun zarur bo'lgan muassasa moddiy bazasini yaratishni ta'minlaydi; bolalar maktabgacha ta'lim muassasasining barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kuzatib boradi. Bundan tashqari u pedagoglarning bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilar oilalari bilan olib boradigan ishlarini tashkil qiladi va yo'naltiradi.

Ba`zan yosh mudirani vazifalar ko'lamining kengligi, ayniqsa kadrlarga rahbarlik qilish bilan bog'liq; bo'lgan xo'jalik masalalarini hal qilish cho'chitib qo'yadi. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida ishlashning barcha zvenolariga rahbarlik qilishning murakkab san`atiga ega bo'lish oson emas, bunga tajriba orqali erishish mumkin. Bo'lajak mudiraning tarbiya masalalarini yaxshi bilishi muhim ahamiyatga ega.



Ajoyib pedagog V. A. Suxomlinskiy pedagogik kollektivning haqiqiy rahbari direktor shunday kishi bo'lishi kerakki «...Uning (rahbarning) mehnati boshqa tarbiyachilar uchun o'rnak bo'la oladigan bo'lsin... Hozirgi maktablarimizni shunday — yaxshi tarbiyachisiz — tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarbiya — bu avvalo insoniyatga xoslik. Bolaning bilimisiz uning aqliy usul va fikrlashi, davosi, ishtiyoqi, qobiliyati, zehni va moyilligisiz tarbiya yo'q deb bejiz aytmagan edi.

Direktor haqida aytilgan bu fikrlar, shubhasiz, maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasiga ham dahldordir: u kelajak kishisinnng shaxsiyati uchun asos tuyiladigan muassasaga rahbarlik qiladi. Pedagogik kollektivda rahbardan, har bir shogirdini yaxshi biladigan kishidan boshda kim ham «qiyin» bolalar tarbiyasiga qanday pul topish kerakligini pedagoglarga aytib tura olardi!

Pedagogikani chuqur bilish, bu bilimdan amalda mahorat bilan foydalanish pedagogik kollektiv rahbari uchun eng zarur hislatdir. Yaxshi bu bolalar» maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasining birinchi darajali fazilatidir, bu hech qachon ma'muriy-xo'jalik mahorati bilan almashinib ketmasligi loznm. Darhaqiqat, tashkilotchi va xo'jalik rahbariga aylanib qolgan boshliq tarbiyachilarda ijodiy mehnatga, murakkab pedagogik muammolarni hal qilishga shahdu g'ayrat ” uyg'ota olishi mumkinmi?

„ Agar mudira xo'jalik va ma'muriy ehtiyojlarga boshi bilan sho'ng'ib ketsa, pedagogik faoliyatini to'xtatib qo'ysa, unga ishonib topshirilgan bolalar muassasasi asta-sekin bolalarga ko'z-quloq bo'lib turadigan muassasaga aylanib qoladi. Bunday bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida avvalo xotirjamlik va tartib hukmron bo'lib qoladi, rejimga amal qilinadi, bolalar yaxshi parvarish qilingan va beozor ko'rinadi. Ammo ana shu tashqi xotirjamlik ortida ko'p hollarda tarbiyaga yagona qarash niqoblanib qoladi, buning oqibati esa pedagogik xatoga olib keladi. Boshlovchi rahbar kollektiv ishining batartib bo'lishiga birdaniga muvaffaq bo'lavermasligi ham mumkin. Avvalo u partiya a'zolari va kasaba tashkilotiga tayanishi zarur. Ular bilan birga vazifalarni



qanday qilib yaxshiroq taqsimlashni, kollektivning har bir aʼzosi dan nimalarni talab qilishni aniqlaydi.

Hodimlar bilan birgalikda «Maktabgacha taʼlim muassassasi Ustavi» «Maktabgacha taʼlim muassassasining ichki tartib qoidasi» ni obdon oʻrganing!

Ushbu hujjatlar sizga bolalar muassasasining aniq sharoit va muvofiq kollektiv mehnatini tashkil etishda yordam beradi. U eski bu uchastka uchun javob beradigan har bir xodim ishini ratsional yoʻlga qoʻyishni puxta oʻylang. Bolalar maktabgacha taʼlim muassasasiga qatnay boshlagan kichkintoy kollektiv hayotidagi barcha yangi qoidalar ni amal da bilib, oʻzlashtirib oladi, oʻz faoliyatida unga amal qila boshlaydi. Ammo barcha bolalar bu qoidalar ni bilsalar ham hamma vaqt unga amal qilavermaydilar.

Kichkintoy birinchi marta maktabgacha taʼlim muassasasida nimaga duch kelsa uni ongli emas, oilada koʻnikkan odatiga koʻra qabul qiladi, baʼzan esa beixtiyor «qoida buzish»ga yoʻl qoʻyadi. Bu holda bolani sabr-toqat, nazokat va uquv bilan oʻrgatishga toʻgʻri keladi.

Bolaning maktabgacha taʼlim muassasasi hayotiga tez oʻrganib ketishi koʻpincha bolalar hayotining qanday tashkil etilganiga bogʻliq; boʻladi. Bola uchun tashqi jimjimadorlik orqasidan quvib, bolalarga qulaylik yaratish unutilgan maktabgacha taʼlim muassasasiga borish zavqlimi? Ozoda, yarqiroq, oʻyinchoqlar ni daxlsiz qilib koʻrgazmaga qoʻyilgan (baʼzan buni kattalar oʻzini oqlamoqchi boʻlib, ibratli deb aytadilar) maktabgacha taʼlim muassasalarda «bizda bu mumkin emas...» «ijozatsiz olish man etiladi» tarzidagi gaplar ni eshitish mumkin.

Bolalar «tartib»ning tazyiqi ostida ish bajaradi, bunday guruh bilan yuzaki tanishgan kishida uyushgan guruh ekan, degan taassurot qoladi. (Afsuski, baʼzan mudiraga xam guruhdagi ana shunday osoyishtalik maʼqul boʻladi). Ammo, bolalar uchun mashgʻulotlar kam boʻlgan noqulay maktabgacha taʼlim muassasasida birovi zerikadi, birovi yigʻlaydi, boshqasi uyga ketishga javob soʻraydi, yana boshqalari shovqin soladi. Taʼqiblash, tahqirlash, tanobini tortish



oqibatida bolalar „maktabgacha ta’lim muassasasida har narsaga tegish mumkin emas. Maktabgacha ta’lim muassasasiga bormayman, uyda o’ynayman», degan fikrni ham aytishi xam mumkin.

Shuni esda tutish lozimki, komplektlashtirish davridagi bolalar hayotini tashkil etishga bo’lgan talab undan keyingi davrdagidan birmuncha farq qiladi. Bu davrdagi eng muhim farq shundan iboratki, yagona rejimga amal qila borib, bolalar bilan umumiy mashg’ulotlar o’tkaziladi, umumiy o’yinlar tanlanadi, bolalarning individual imkoniyatlari hisobga olinadi.

Asosiy vazifa — bolalarni tezroq bir-biri bilan do’stlashtirish. Bunga bolalar hayotining hamma qirralari — aniq rejim, mashg’ulotlar, o’yinlar katta imkoniyat beradi. Tarbiyachi har bir bolaga o’zibop o’yin topish, har bir bolani biron yaxshi narsa bilan ovuntirishga harakat qiladi. O’zi ham bolalar bilan birgalikda tez-tez umumiy o’yinlarga qo’shiladi, binobarin, bolalarni birlashtiradi. Ularning quvnoq va barham kayfiyatlarini qo’llab-quvvatlaydi. Masalan, ularga oldindan tanish bo’lgan bekinmachoq, «sichqon-mushuk» o’yinlarini o’ynatadi.

Bolalar maktabgacha ta’lim muassasasiga kelganiga ikki-uch kun bo’lmasdanoq ularda kollektiv hayot haqida tushunchalar paydo bo’la boshlaydi. Bolalarni birlashtirish uchun qaysi usul qulay bo’lishini tarbiyachining o’zi tanlaydi. Shubhasiz, bolalarda umumiy manfaat yaratish kollektivda qolishga istak tug’dirish uchun eng qulay usul o’yin tashkil qilishdir. O’yin bolalar maktabgacha ta’lim muassasasi hayotida bolalarning doimiy yo’ldoshi bo’lishi kerak.

Birinchi kunlardanoq jozibador va maroqli o’yinlar tashkil etish zarur. O’yin bilan bog’liq bo’lgan hamma narsa bolalar uchun qiziq va tushunarli bo’ladi. Shu sababdan ham tarbiyachining bolalar bilan, ayniqsa kichkintoylar bilan yaqin bo’lib ketishi ko’pincha o’yin jarayonida sodir bo’ladi. Mohira uyda kunduzgi uyqudan qip-qizarib, quvnoq uyg’onardi. Bu yerda esa hamma narsa



yangi, notanish. Qizchani ko'zlarida sog'inchi va dovdirash alomatlari. Yig'lab yubormoqchi.

Buni oldindan payqagan tarbiyachi uch yashar do'mboqchaga yotmaydigan qo'g'irchoq keltirib, uning yoniga qo'yadi va qo'girchoqni gapga soladi: «Men allaqachon uyg'ondim. Bilasanmi, men qanday uyg'onaman?! (Qo'girchoq boshini ko'taradi). Qani endi Mohira sen ham turchi? Ha, ana shunday... Men bilan o'ynaysanmi?»

Yig'lash istagining o'rnini boshqa, ya'ni tezroq o'rnidan turib o'ynash istagi egallaydi. Tarbiyachi qizchaga sekin engashadi: hali hamma uyg'ongani yo'q.

Bugun hozircha guruhda sakkiz bola. Ularning hammasi uchun yoqimli, qiziqarli tuyg'u uyg'otadigan narsa: zavqli o'yinchoq tayyorlangan. Albatta bu o'yinchoqlar hammasining didiga mos kelmasligi ham mumkin. Ammo shubhasiz, tarbiyachining bolalar bilan bo'ladigan muomalasi istalgan natijani beradi. Pedagogning o'yin vositasida bolalar bilan o'rnatadigan aloqa qo'li juda qisqa.

Ana shu paytda diafilm, qo'girchoq va soyali teatr ko'rsatib bolalar ovuntirilsa, juda yaxshi bo'ladi. Bolalar konsertni tashkil qilish ham mumkin. Bolalar uylarida o'rgangan she'r va ertaklarni aytib berishadi. Bolalarning bu chiqishlari ularning o'sishi, nutqlarining to'g'ri va ifodali ligi, tovush talaffuzi, xotirasi, logik fikrlashlari haqida pedagogga muhim xulosalar chiqarishiga yordam beradi.

Dastlabki vaqtlarda musiqali kechalar va boshqa ko'ngil-ochar tadbirlar odatdagidan ko'proq o'tkazilsa, bolalarni birlashtirib, uylari haqidagi xayollardan xoli qiladi. Xursandchiligini oshiradi. Quvnoqlik bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi xayotida kichkintoylarning doimiy hamrohi bo'lishi kerak.

Bola yangi sharoitda. Uning uchun o'z qiziqishlarini qondirishga intilish tabiiy guruh xonasining eshigi oldida nimi bor? Eshik qayoqqa ochiladi? Har bir xona




nimaga mo'ljallangan? Zalda nimalar qilinadi? Koridor qayoqqa olib boradi? degan savollarga javob topgisi keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi binosiga «sayohat» qilish yangi sharoitni tezroq o'zlashtirishda bolalar istagiga yaxshiroq javob beradi. O'zlarining maktabgacha ta'lim muassasasini yaxshi bilgan sari bolalar unda o'zlarini dadil va bermalol tuta boshlaydilar, binodagi predmetlarni erkin topa oladigan bo'ladilar. Bolalarga nimalarni ko'rsatish kerak?

Kichkintoylarga guruh xonalari ko'rsatilib, o'ynash uchun ajratilgan burchak va o'yinchoqlar haqida tushuncha beriladi. Yo'l-yo'lakay bolalar har bir predmet nima uchun zarurligi bilan ham tanishadilar. Masalan, stolda ovqatlaniladi, rasm chiziladi, plastilindan o'yinchoqlar yasaladi, qog'ozdan qirqib yelimlanadi va hokazo. Barcha o'yinchoqlar bolalar ixtiyorida. Ammo ba'zilar bilan po'lda, ba'zilar bilan gilamda, yana boshqalari, masalan, har xil piramidalar, minorachalar bilan stol ustida o'ynaladi. Har bir narsa o'yindan keyin yig'ishtirib qo'yiladi (o'z- o'zidan ma'lumki, bolalarga birdaniga ko'p narsa haqida ma'lumot berilmaydi).

O'rta va katta guruhlarining bolalariga boshqa guruhning xonalari, omborxona, ishxona, mudiraning xonasi, narvonlar qayerda joylashgani ko'rsatiladi. Zalga kirish bilan tarbiyachi bolalar diqqatini zalning keng va yorug'ligiga, royal, devordagi rasmlar, o'rta devordagi Vladimir Il'ich portretiga jalb etadi. Bu yerda musiqa mashg'ulotlari, bayram ertaliklari, gimnastika va sport o'yinlari o'tkazilishini ham uqtiradi.


Bordi-yu, bolalar qiziqishmasa, u vaqtda ularda quvnoq kayfiyat hosil qilish uchun zalda sakrab-sakrab chopishga ruxsat etiladi. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar saf tortadilar. Zinalardan asta tushib, mudira xonasi yonidan o'tadilar. Ularning ko'pchiligi bu xonada o'z onalari bilan bo'lganlar. Bu yerda esa oshxona. Bolalar oshpaz bilan tanishadilar. Uning ismi va familiyasini bilib oladilar. Endi ular lazzeatli nonushta, tushlik va kechqurungi taomlarni kim, qayerda tayyorlashidan xabardor bo'ladilar.



Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi birinchi kunda bolalar bilan ishlash planini tuzishda yordam beradi. Chunki hali o'z tarbiyalanuvchilarini yaxshi bilmaydigan tarbiyachilar uchun bu ish oson bo'lmaydi.

Mudira endigina komplektlashgan guruh bolalaridagi mavjud imkoniyatlar bilan programma talablarini solishtirib ko'rishni tarbiyachiga maslahat beradi. Ko'pchilik bolalar qanchalik bilimga, qanday odat va qobiliyatga ega? Ularning axloqi qanday? Bularning hammasi har bir guruhda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasining bosh punkti bo'lmog'i lozim. Masalan, avval maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmagan, qo'shiq aytish, musiqaga jo'r bo'lib yurishni bilmaydigan bolalari ko'p bo'lgan tayyorlov guruhida birdaniga maxsus programma bilan ish boshlash mumkinmi? Tabiiyki, bu yerda ayrim chekinishlar qilishga| programma materiallarini tanlashda ijodiy yondoshishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda ko'pincha bolalarni avval katta va ba`zan o'rta guruhlar programmasida ko'zda tutilgan bilish va malaka hosil qilishga o'rgatishga to'g'ri keladi.

«Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya programmasi»ning kichik guruh» larda birinchi mashg'ulotni tashkil qilishga oid joyini ochamiz. Unda bolalarni ikki kichik guruhga bo'lib har kuni ikkita mashg'ulot o'tkazish, bolalar zarur xatti-harakatlarini hamda qalamdan, loydan foydalanish, rasm chizish, yelimlashni o'rganib olgach, yil oxirida ularning hammasi bilan bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi.



II.BOB

2.1 Mudiraning jamoatchilik , mahalla qo`mitasi hamda ota-onalar bilan hamkorligi ishi mazmuni.

O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi qonunida sog`lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim shart – sharoitlarini yaratish, “bo`lajak mudiralarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun jismoniy shaxslar madaniy – estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarida darsdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etish”, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida quyidagi ustuvor yo`nalishlar belgilab berilgan:

O`quv – tarbiya jarayonining sog`lomlashtirishga qaratilgan amaliy harakatlarni tashkil etish, sog`lom turmush madaniyati me'yorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo`lgan sharoitlarni yaratish;

Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy aytganidek, bola 5 yoshga kirguncha 17 yoshar bolaning ellik foiz intellektiga ega bo`ladi. Shuning o`zi bu yoshdagi bolalarning tarbiyasi naqadar ahamiyatli ekanligini ko`rsatib turibdi. Demak, ushbu davrdagi tarbiyani bola shakllanishida asosiy bosqich deb hisoblash o`rinli bo`lardir. Muassasa va oila bolani tarbiyalashda davlat siyosatiga asoslangan yagona konsepsiyaga muvofiq ish olib bormog`i zarur. Tarbiyaning turlari haqida gapirganda, eslash zarurki, odatda o`quv- metodik qo`llanmalarda maktabgacha ta’lim muassasasi bolalari tarbiyasining turlari quyidagi tartibda beriladi: jismoniy, xissiy, ijtimoiy, kogniti. Biz bunday tartibga qo`shilolmaymiz va kognitiv birinchi o`ringa qo`yish kerak, deb hisoblaymiz, chunki o`ylash bilishdan boshlanadi. Fikrimizcha, tartib jihatidan tarbiya turlarining ketma-ketlik quyidagicha bo`lgani ma`qulroq: kognitiv, xissiyot, jismoniy, ijtimoiy.

Tarbiya jarayonida oila bilan muassasa o`rtasida uzluksiz munosabatlar bo`lishi zarur: oiladan muassasaga, muassasadan yana oilaga va h.k.

Ma`lumki, bu yoshdagi bolalar hali oilaga ko`proq bog`liq bo`ladi. Oila ularning ijtimoiylashuviga (sotsializasiyasiga), ya`ni, jamiyatga kirib borishiga



mas`uldir, bu yerdam ko`proq maktabgacha ta`lim muassasasi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun maktabgacha ta`lim muassasasi qancha ahamiyatli bo`lmasin, bu yoshdagi bolalar uchun oila tarbiya masalasida birinchi o`rinda turadi.

Bola uyda o`rganganini maktabgacha ta`lim muassasasida davom ettiradi va maktabgacha ta`lim muassasasida oiladagi tarbiya ma`lum darajada korreksiya qilinadi, ya`ni, tarbiyaning noto`g`ri joylari tuzatiladi, yetishmovchiliklari to`ldiriladi. Maktabgacha ta`lim muassasasi bolaning oiladagi hayotidan, oila esa farzandning maktabgacha ta`lim muassasasidagi yutuqlari va kamchiliklaridan xabardor bo`lib turishi maqsadga muvofiq. Xarakterdagi va tarbiyadagi kamchiliklarni ham bilib, ularni o`z vaqtida hamkorlik asosida bartaraf etish - eng muhim masalalardan biri.

Oila - tarbiyaning asosiy bazasi, o`chog`i. Oila maktabgacha ta`lim muassasasidagi muhitdan xabardor bo`lmog`i zarur, maktabgacha ta`lim muassasasi esa oiladagi. O`shanda bolaning tarbiyasi samarali bo`ladi.

Ota-onalar tomonidan "maktabgacha ta`lim muassasasi bunday bo`lishi kerak", maktabgacha ta`lim muassasasi xodimalaridan tomonidan esa "ota-ona bunday bo`lishi kerak" degan gaplarni tez-tez eshitish to`g`ri keladi. Maktabgacha ta`lim muassasasi bilan oila - bu o`zaro norozichiliklar bildirish, bir-birini poylab, ayb qo`yish joyi emas. Oila va maktabgacha ta`lim muassasasi o`rtasidagi bunday konfrontasiya, qarama-qarshilik yaxshilikka olib bormaydi, bundan ikkila tomon ham yutqazadi. Lekin eng ko`p zarar ko`rayotgan bu yerda bolajon bo`ladi. Shuning uchun oila va bog`cha bola tarbiyasida o`zaro hamkor ekanligini hech qachon esdan chiqarmaslik zarur. O`zaro majburiyat, javobgarlikni xis qilish muhim ekanligini doimo eslab turish lozim. Diqqat markazida oila a`zolari yoki tarbiyachilarning manfaatlari emas, balki bolaning qiziqishlari va taqdiri turishi kerak. Ota-ona maktabgacha ta`lim muassasasini qo`shimcha tashvish deb bilmasliklari darkor, bog`cha, o`z bolalari kabi, ular hayotining bir qismi bo`lmog`i kerak. Hamkorlikning har xil turlari bor: maktublar, kundaliklar,




maqtoov yorliqlari ("bugun sizning bolangiz ... musobaqasida birinchi o'rin oldi...), e'lonlar taxtasi, axborot varaqalari, maktabgacha ta'lim muassasasida oila xonalari, kutubxona va o'yinlar xonasi, xonadonlarga tashrif buyurish, ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasidagi yig'ilishi va uchrashuvlari, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, suhbatlar, so'rovnoma, bog' sayri, bolalar maydonchalarini jihozlash, varrak festivali, badiiy faoliyattaom tayyorlash, ustachilik, tikuvchilik va boshqalar. Masalan, sport musobaqalarining o'zi bir dunyo bo'lib, bolalarga qancha zavq bag'ishlaydi... Oila va maktabgacha ta'lim muassasasida bola tarbiyasining yagona muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish ota-onalarning tarbiyachi ro'lini qay darajada bajara olish tayyorligiga bog'liq. Bundan ota-onalarga pedagogik ma'lumot berish zarurati kelib chiqadi. Ayniqsa yosh ota-onalar pedagogik yordamga ehtiyoj sezadi. Ularda birinchi bola paydo bo'lishi bilan juda ko'p savollar tug'iladi.

Ota va ona eng yaqin kishilar bo'lganligi uchun bola shaxsining shakllanishida g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kichkintoyning oilada qanday ta'sirga duch kelishi muhim ahamiyatga ega. Zarur bilimlarsiz tabiiy tuyg'ulargagina tayanib tarbiyalash — kelajakda ulg'ayadigan inson tarbiyachi xavf ostiga tuymoq demakdir.

«Biz bolalarimizni qanday tarbiyala shimiz lozimligini bilmasligimiz mumkin?» — deb yozgan edi atoqli pedagogi A. S. Makarenko.

Ota-onalar nima bilan shug'ullanmasinlar, ixtisosliklar bo'yicha ular kim bo'lmasinlar, ular umuman akt o'z bolalarning tarbiyachilaridir. Buni esda tutgan maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi pedagogi propagandami umuman vaqt davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ish deb qaraydi. Pedagogik bilimlarni egallash faqat ota-onalik vazifasini bajarish uchungina emas, balki vazifasini bajarish uchun ham zarurdir. Har bir vazifasi o'z farzandlarini foydali grajdanlar qilib yetishtirishdan iborat. Pedagogik bilim va malakalarni egallamay turib esa jamiyat oldida bunday vazifani bajarib bo'lmaydi.



Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiya xarakteridagi muassasa bo'lganligi uchun ham kommunistik tarbiya g'oyalarini propaganda qiluvchi darkor bo'lmog'i kerak. Mudira ota-onalar bilan hamkorlikda bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi ishini tashkil etishga ana shu nuqtai nazardan yondoshmog'i lozim.

Oila bilan maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yishda tajribada sinalgan metod va yo'llar oz emas. Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiralariga bular ma'lum. Ammo nima bo'lishni bila olishdagina emas, oila bilan maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi ishlarni qanday tashkil qilishda, qanday qilib pedagogik kollektivni bu vazifalarni bajarishga safarbar etishdadir.

Qiyinchilik tug'ilgan hollarda pedagoglarga qanday qilib yordam bermoq kerak? Yosh tarbiyachilarni qanday xatolarda ogohlantirish kerak? Birinchi marotaba tarbiyalanuvchisining oilasiga borayotgan yoki ota-onalar oldida birinchi marta so'zga chiqayotgan tajribasiz pedagogga nimalarni aytish kerak? Pedagog navbatdagi guruh ota-onalar majlisida axborot berish, ota-onalar bilan suhbat o'tkazish uchun unday tayyorgarlik ko'rishi kerak? Oila bilan ishlashda tarbiyachi uchun unday masalalar asosiy hisoblanadi va u masalalarni tanlashda nimaga e'tibor bermoq kerak? Bularning hammasi endigina ish boshlagan rahbarga ba'zan qiyinchilik tug'diradi.

Ma'lumki, ota-onalar bilan olib boriladigan ishning eng keng tarqalgan formasi — bu yakka tartibda suhbat olib borishdir.

...Ota-onalar bilan birinchi tanishish. Bola usulda, bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi haqida birinchi suhbat. Bu ota-onalar bilan tarbiyachilar o'rtasidagi do'stlikning boshlanishi bo'la oladi bu bevosita suhbat mazmuniga, uning ma'lum maqsadga qaratilganligiga, pedagogning tarbiya masalalariga ota-onalarda qiziqish uyg'ota olishiga bog'liq. Tarbiyachiga tarbiyalanuvchining otasi yoki onasi bilan nimalar haqida, qanday onangda gaplashish zarurligi yuzasidan maslahat bering. Kim, qanday rahbar bo'lmasin, u ota-onalarga nisbatan hurmat-ehtirom va iltifot namunasini ko'rsatadimi? Pedagogning ota-




onalardan ko'p narsa o'rganishini o'z haqida eslatib turish juda muhimdir. Bolaning rivojlanishidagi xususiyatlarini, xarakteridagi kam seziladigan kamchiliklarni hech kim ota-onalardek yaxshi bilmaydi-ku, axir. Bundan ravshanki, ota-onalar bilan pand-nasihat onangda so'z- lashish yaramaydi, ko'pincha tajribasiz tarbiyachilar pand-nasihat qilishga o'tib ketadilar.

Pedagog o'z tarbiyalanuvchisining onasi, otasi yoki buvisi bilan har kuni ko'rishib turadi. Odatda, ertalabki va kechki suhbat uzoq davom etmaydi. Biroq tarbiyachi bolaning uyda yurish-turishi, uning sog'ligi haqidagi, u yaqin kishilarini nima bilan xursand qilishi, akasi yoki onasi bilan qanday o'ynashi va boshqalar haqidagi narsalarni bilib olishga ulguradi. O'z navbatida tarbiyachi ham kichkintoy bog'chada o'zini qanday tutishi, mashg'ulotdagi muvaffaqiyatlari, nimani, kim bilan o'ynagani, mehnat topshiriqlarini qanday bajargani haqida so'zlab beradi.


Bu suhbat garchi plansiz va juda qisqa o'tsa ham, uning mazmuni hamma vaqt pedagogik yo'nalishda bo'ladi. Agar maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tarbiyachining ota-onalar bilan bo'ladigan shunday suhbatida vaqtida mudiraga tarbiya masalalari yuzasidan ular o'rtasida uzviylikning bor-yo'qligi, munosabatdagi onang, ota-onalar ko'z oldida pedagogning qanchalik obro'ga ega ekani, bola haqida mamnuniyat bilan so'zlasha oldilarmi yo'qmi, ravshan bo'ladi. Bolaning yoshligida tarbiyachi, masalan, bunday savol beradi: bola gapga ko'nadigan, mo'min-muqobilmi yoki injiqmi? usullardan qay biri unga samaraliroq ta'sir etadi. (Yumshoq muomalami yoki dangallik, buyruq ohangimi yoki iltimos) Kattalar ta'sir etishning dangal yo'lini qo'llamaydilar? Oila a'zolari o'rtasida bolani tarbiyalashda kelishib olingaymi?

Mudira eslatib o'tadi: «Bolaning uyidagi tashqi sharoit bilan tanishish asosiy vazifa bo'lmay, uning uchun zarur bo'lgan barcha o'yinchoqlar va kitoblar tashqari keragidan ko'p olsa ham, biroq tarbiya berishda ancha kamchilikka yo'l qo'yilishi mumkin. Albatta bola oilasidagi asosiy tarbiya ipidan-ignasigacha bilib olish murakkab ish bo'lib tarbiyachi necha marta borganda uni mukammal bilib





olish ham ancha qiyindir». Shunday paytlar bo'ladiki, tarbiyachi birinchi marta bola oilasiga qandaydir odatdan tashqari voqea sodir bo'lganda boradi. Pedagogning bunday kelishi, tabiiy ravishda, ota-onalarda tarbiyachiga nisbatan xushyor bo'lish va ishonchsizlik tuyg'ularmii uyg'otadi.

Tarbiyachi ota-ona huzuriga borganda, ular bolasi to'g'risida arz-dod qilib emas, balki uning muvaffaqiyatlarini aytib berishga borgani ma'qul, ya'ni qanday qilib pedagog tarbiya berishda yaxshi natijalarga erishdi va bolalar bog'chasida erishilgan yutuqlarni unda ham mustahkamlash ekanligini aniqlash zarur. Ota-onalar huzuriga bormoqchi bo'lgan tarbiyachi bu haqida ular oldindan ogoh qilib turmog'i kerak. Uning bemavrid, masalan, uyni yig'ishtirayotganda (kutarayotganda) yoki oilaviy tantanalar nishonlanayotganda kelishi, ota-onalar bilan tarbiyachi o'rtasidagi o'zaro vujudga kelgan yaxshi munosabatlarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Faqat ayrim hollardagina, masalan, bola kasal bo'lib qolsa, ota-onaning tarbiyachi bilan uchrashuvi kundan-kunga cho'zilib qolsa, orqada tarbiya berishda noxushlik qilib, pedagogning aralashuvi lozim bo'lsa uni keyinga qoldirib bo'lmasa (bolaga tan jazosi qo'llangan ota-onaning g'amxo'rliqi va e'tibori susaygan hollarda) tarbiyachi ogodlantirmasdan kelishi mumkin. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasining ishi ham yakkaboshchilik prinsipida qilinadi. Mudira ishning barcha uchastkalari uchun javob berib iqtidorlilar tajribasiga tayanib, butun kollektiv faoliyatini tarbiya vazifalarni bajarishga intilgan holda ish olib boradi. O'z navbatida kollektiv ham bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi oldidagi vazifalarni bajarishda mudiraga ergashadi. Mudira xar bir xodimdan uning kuch va imkoniyatiga yarasha vijdonan ishlashni talab qilishga haqli. Mudiraning bergan topshiriqlari hamma uchun majburiydir. Mudira o'z faoliyatida ko'pchilik fikriga, ilgorlar tajribasiga tayanadi, novatorlar maslahatiga quloq soladi. uni ayniqsa hali yetarli darajada rahbarlik tajribasiga yeta bo'lmagan yosh mudiralar hisobga olishi kerak. Ayrim yosh rahbarlar kollektiv a'zolari bilan maslahatlashishni o'zlaricha uyat, obro'sizlanish deb tushunib notog'ri qiladilar. Aksincha, ilgor xodimlarning




tajribasiga, bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidagi yaxshi an'analarga tayanadigan mudiralar xatoga kam yo'l qo'yadilar, kollektivda obro-e'tibor topadilar. Xodimlar kollektivi bilan bir-birini tushunish, o'zaro aloqa mavjud bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida mudira uchun ishlash oson va ko'ngilli bo'ladi. Xodimlar o'zlarining fikrlari bilan xisoblashib ish ko'radigan, foydali maslahatlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarni qadrlaydilar. Bundan mudiraning obro'yi pasaymaydi, balki oshadi... Obro'! Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasing nima obro'li qiladi? Xar kim ham obro'ga erishishga xarakat qiladi, ammo uni har kim o'zicha tushunadi. Ayrim kishilar o'z bilimi, kishilarga yaxshi munosabati, pedagogik takti, ishchanlik va qat'iyati bilan obro' qozonishga harakat qiladi. Boshqa bir xil kishilar esa, xodimlarga zahrini o'tkazish, raxbarlik lavozimini suiste'mol qilish bilan obro' orttirishga urinadi. Ikkinchi toifadagi kishilar o'z rahbarlik usullarini o'ylashga urinib «yumshoqlik va sipogarchilik bilan tartib va intizomga erisha olishsa», degan gapni ro'kach qiladi. Ularning faoliyatida ishchanlik va gayratlilik o'rnini ba'zan ko'pollik va qo'rslik, buyruk va baqiroqlik egallab qoladi. Ba'zan shunday xam bo'lishi mumkin. Masalan, mudira o'zini sodda va madaniyatli tutib, xodimlarga betakalluf muomalada bo'ladi. Ularga talabchanlik ko'rsatmaydi. Hammaga yaxshi ko'rinay degan maqsadda bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi uchun qabul qilingan qoidalaridan chetga chiqishga yo'l qo'yadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi vijdotsizlik, madaniyatsizlik va betartiblikning har qanday ko'rinishlariga, qarshi jamoatchilik fikrini tashkil qila bilishi lozim. Agar jamoangizga noshudlik qiluvchi ayrim xodimlarga keskin qarshi turadigan sog'lom jamoatchilik fikri shakllangan bo'lsa, bunday kollektiv hamisha sizning yaxshi tayanchingiz bo'ladi.

Xodim yoshligi, tajribasizligi, ish stajining kamligiga asoslanib rahbarining topshirig'ini bajarishdan bosh tortishi yoxud o'z kasbdoshining fikri bilan xisoblashmasligi mumkin, ammo ayrim xodimlarning salbiy xatti xarakatlarini



bir tan bir jon bo'lib qoralayotgan kollektiv fikri bilan hisoblashmasdan iloji yo'q.



2.2. Rahbarlik nazorat qilish va yordam berishdir.

Mudira — maktabgacha ta'lim muassasasining metodisti. Bu sizni barcha ishlaringizni shunday tashkil etishga majbur qiladiki, uning asosi pedagogik faoliyat bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyatni esa ish vaqtining ko'proq, jismini bolalar tarbiyasiga rahbarlik qilishga sarflanadigan qilib planlashtirish lozim.

Tarbiyachilarning o'z ishlarining mohir ustasi bo'lishlariga yordam berish bolalar bog'chasidagi metodik ishlarining asosiy vazifasidir.

Bolalarning axloqi qator sabablarga bog'liqdir. Ba`zan pedagogning o'zi ham, garchi maxsus tayyorgarlikka ega bo'lsa-da, u yoki, bu bolani tarbiyalash usullarini tanlab olishda qiynalib qolishi mumkin. Ana shu vaqtda u maslahat va yordamga muhtoj sezadi. Bunday yordamni esa bolalar maktabgacha ta'lim muassasasining mudirasi berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi suhbatlashish va konsultatsiya maqsadida tarbiyachi ishlarini kuzatish uchun ma'lum soatlarni ajratsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ajratilgan vaqt boshqa biror ishga sarflanmasligi kerak. Ana shunday aniq tartib faqat sizgagina emas, balki maktabgacha ta'lim muassasasining barcha hodimlari uchun ham zarur.

Eng muhimi, maktabgacha ta'lim muassasasida ishlovchi kishilar, albatta, bolalarni sevishlari kerak. Ammo sevishning o'zigina kifoya qilmaydi: o'z tarbiyalanuvchilarini yaxshi bilish, hurmat qilish ham zarur. Har qaysi bola qobiliyat va g'ayrati, xarakteri, atrofidagi kishilar bilan muomalasi, bilim olish darajasi bilan o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Har biri o'z yutuq va nuqsoniga ega. Bolani tushunish o'z shogirdining individual xususiyatlarini o'rganish, N. K. Krupskaya aytganidek «bolaning o'rniga o'zini qo'ya bilish» ga o'rganish, ya'ni bola axloqining sabablarini tushunmoq demakdir.

Ko'pincha tarbiyachilar bola haqidagi mulohazalarida xatoga yo'l qo'yadilar harakatchan, jonli va dadil bolalar ularcha intizomsiz, piemik, hech kimga qo'shilmaydigan bolalar esa ibratli bo'lib tuyuladi. Mudira tarbiyachilarni har bir bolani tushuna olishga o'rgatmog'i lozim.



Mudiraning kollektiv bilan ishlash metodlari turlicha bo'lishi mumkin. Bu metodlar ish sharoiti, tarbiyachilar va bolalarning sostavi, sizning tashabbusingizga bog'liq. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi tajribasida mudiraning kollektiv bilan olib boriladigan ishlarining quyidagi turlari tasdiqlangan:

Zarur tashkilotlar orqali tarbiyachi ishini kuzatish.

Tarbiyachilarning bolalar bilan olib boradigan ishlarini planlashtirishga ko'maklashish.

Tajriba almashish ishini tashkil etish.

Pedagogik jamoa bilan konsultati Pedagogik yig'ilishlar o'tkazish.

Pedagogika ishini tashkil etish.

Tarbiyachi faoliyatining muvaffaqiyati ko'p darajada uning ish kuniga o'z vaqtida tayyorlanishiga bog'liq. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim muassasasi binosi va uchastkasini obod qilishga o'rganing. Guruh xonalari toza va saranjommi? Mahalla tartibga keltirilganmi, hammasi tarbiyachilarning katta ishlar olib borishlariga, bolalarnng quvnoq va qiziqarli hayoti uchun tayyormi, tekshirib ko'ring. Kamchiliklar topilsa, uni darrov tuzatish uchun ombor mudiriga ayting, chunki har bir mayda-chuyda narsa hayot maromiga yetkazadi. Tarbiyachi bolalar uchun zarur narsalarni hozirlab qo'yganmi, ko'zdan kechiring. Barcha tayyorlik ish ko'pi arafasida ko'rilishini talab qiling.

Agar sizning bugun bolalar bilan qanday mashg'ulot o'tkazasiz, degan savolingizga tarbiyachi rejaga qarab javob berishga shoshilsa, bilingki, u tarbiyachi mashg'ulotga tayyor emas. Agar qalamlar , rasm chiziladigan varaqda oy kun yozilmagan bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulot boshlanishi oldidan qaysi yoki rasm so'rab sizning oldingizga kelsa, demak u mashg'ulot o'tkazishga tayyor emas. Har bir pedagog ertalab bugun kun bo'yi nima ish qilishini bilishi kerak.

Ko'pchilik mudiralar maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarning ertalabki qabul qilinishini nazorat qiladilar, ammo har xil nazorat qiladilar. Ayrimlari bir chetda turib, ba`zan nimanidir yozib kuzatadi. Boshqalari kuzatibgina qolmay,




bolalar qachondan qabul qilinayotganiga o'zlari ham qatnashadi. Injiq bolalar bilan gaplashadi. Ularni nima bilandir ovutadi. Bola kattalar bilan salomlashmayotgani yoki ota-onasi bilan xayrlashmayotganini sezsa, buni unga eslatadi. ...Ertalab, bolalarni qabul qilib olgach, kichik guruhning tarbiyachisi bir bola bilan ovora bo'lib, boshqa bolani unutadi. Bolalar nima qilishini bilmay guruh eshigi oldida tayyorlanishib, bir-birini itarar, injiqlik qilar edilar. Buni ko'rgan mudira qo'lga qo'g'irchq olib, uning nomidan bolalar kiyimlarini shkaflarga qanday ildilar, ular toza kiyinishganmi, har birida dastro'molcha bormi, deb so'raydi. Yoqimli so'zlar ularni tinchlantiradi, ular quvnoq ko'plab qo'g'irchoq bilan suhbatga kirishadilar. Tarbiyachi mudiraning qo'lidan qo'g'irchoqni olib, bu qiziqarli o'yin-suhbatni davom ettiradi.

Mudira bu yerda tarbiyachiga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birga unga kichkintoylar bilan ishlashning to'g'ri yo'lini ham ko'rsatib berdi.

Guruhlarni obod qilar ekansiz, ertalabdan hosil bo'lgan ish vaziyatiga e'tibor bering, toki tarbiyachi ham, bolalar ham mashg'ulot bilan band, tinch-osoyishta, zavqli kayfiyatda bo'lsinlar.

O'rta guruhdagi tarbiyachining baqirgan ovozi eshitildi. «Unga nima bo'ldi ekan, bugun? Nega asabiylashyapti»—deb o'ylagan mudira shoshilib, guruhga yo'l oladi. Ma'lum bo'lishicha, Sardor degan bola tarbiyachining kayfiyatini buzibdi. U hayajonda, bu butun guruhga ta'sir qilayapti, bugun bu yer odatdagidan ko'ra shovqinli.

Ishdan keyin tarbiyachi mudira chaqirmasdanoq o'zi uning ol diga kirib keldi va gapira ketdi: «Men o'zimning nohaq ekanimni tushunaman: bolalarga baqirib muomala qilish mumkin emas, ammo bugun ertalabdan hammasi — Valining onasi o'zining savollari bilan, Sardor esa sho'xligi bilan asabimga tegishdi, siz guruhga kirib kelganingizda sal ovozimni baland qilgan edim. Men sizga «Bu quloqsizlarni o'zingiz tarbiya qiling-u, keyin menga o'rgating», demoqchi edim. Men sizga dangal javob tayyorlab qo'ygan edim. Siz bo'lsa menga hech narsa demadingiz, faqat yelkamga qo'lingizni tashladingiz, xolos. Birda o'zim ham



jimib qoldim... So'ngra Sasha ham odatdagi bola bo'lib tuyuldi. Sizga dangal gapirish istagi ham so'ndi. Men bolalar bilan ahil bo'laman deb sizga va'da beraman.

Tarbiyachida bu ijobiy reaksiya hosil bo'lishining sababi nimada? Aftidan mudiraning xarakteri bo'lsa kerak. Chunki u o'zini o'zi xohlagancha tuta bildi, binobarin, oqibatda tarbiyachi ham o'zini shunday tutdi.

Juda ko'p tarbiyachilar plan tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Yaxshi plan esa tarbiyachi faoliyatining aniq bo'lishining shartlaridan biridir. Plan pedagogning bolalar bilan olib boradigan ishlarini tashkil qiladi. Unga bolalarni to'g'ri tarbiyalashda yordam beradi.

Agar siz tarbiyachining reja tuzishga qiynalayotganini ko'rsangiz, darhol ko'maklashing. Siz bu yordamni qanday amalga oshirasiz? «Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya dasturi»da yozilgan metodik ko'rsatmani o'qib chiqishni tavsiya qiling. Tarbiyachi buni rejalar

tuzish talabi yuzasidan qanday baholaydi, unga tushunarlimi? qanday tuzish kerak? dasturda mazmunan deganda nimani tushunmoq lozim, uni qanday qilib rejaga ko'chirish mumkin? Ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini qanday rejalashtirish kerak? Pedagogning bolalar bilan ishlaydigan birinchi rejasini birga tuzing. So'ngra bu reja amalda qanday bajarilayotganini nazorat qilib boring. Nazorat natijasini tarbiyachi bilan birga o'tirib tahlil qiling.

Masalan, rejada bolalar bilan mahallada uchrashuvni tashkil etish quyidagicha belgilangan: qum to'kilgan joyga odam va hayvonlar figuralarini olib chiqish, kartondan uy yasash, bolalarga qum solingan yashikda ko'cha, uy, daraxtlar

qurishni taklif etish; Sarvar bilan Vohidga (tez qo'zg'aluvchan bolalarga) garaj qurdirish, ularga mashina va dizil bayroqchalar berish, suhbat shiyponchasi reja qo'g'irchoqini o'tkazib, idishlar quyish.


Bolalar bilan uchrashuvni batafsil planlashtirish (bu ayniqsa ishning dastlabki kunlarida juda zarur) pedagogga bolalarni uyushtirishda yordam beradi.



Tarbiyachi bilan qilgan suhbatingizda buni tushuntiring hamda konkret planning ahamiyatini isbotlab bering.

Pedagogning reja ustida ishlashini osonlashtirish uchun unga avval mustaqil ravishda 2—3 kunga, so'ngra bir hafta, nihoyat, ikki daftarga planlashtirishni topshiring. Asta-sekin tarbiyachilarni planlashtirishni takomillashtirishga o'rgating. Mashg'ulotdan tashqari ishlar mazmunini rejalashtirish, bolalarga individual yondashish, ota-onalar bilan ishlash, asosiy plannini belgilash qanday bo'lishini ko'rsating. Bolalar bilan ishlashni yaxshi rejalashtirish oson emas. Bunga o'rgatish uchun tarbiyachi bilan faqat planli ish olib borish, asta-sekin uning rejalarini har tomonlama o'rganib, yordam qilish zarur bo'ladi.

Afsuski, rejaning ustidan ko'z yugurtirib, darrov «tasdiqlayman» deb qo'l qo'yib yuboradigan mudiralar ham bor. Bunday mudiralar tarbiyachilar rejasiga amalda hech qanday (garchi kerak bo'lsa ham) tuzatishlar kiritmaydi. Ular bunga rejaga tuzatish qilib yozib qo'ysam, bu tuzatishlarni ko'rgan kishilar oldida tarbiyachining o'rnini ketib qoladi, degan gapni sabab qilib ko'rsatadi.. Ammo «tasdiqlayman» deb yozish bu men reja uchun, uning mazmuni, tarbiyachining metod va usuli uchun javob beraman, degan. Shunday ekan rejani tasdiqlash uchun mudira reja bilan birma-bir tanishib chiqmog'i, unda «Tarbiya dasturi»ga qanday amal qilingani, dasturning materiali qanday yo'sinda olingan, o'tgan mashg'ulot bilan bog'lanadimi, bolalar nimani o'rgangan-u, nimani hali o'rganisha olmaganini tarbiyachi hisobga olganmi-yo'qmi, ko'zdan kechirmog'i lozim. Bolalardan o'tirib va ochiq davoda bajarishni talab qiladigan mashg'ulotlar har kuni qay tarzda uyg'unlashtirib olib boriladi? Unda metodik usullar muntazam ravishda belgilanadimi, rejada bolalarga individual yondashish qanday bayon qilingan? Bolalarning qiziqishlari hisobga olinganmi, pedagogning muomala metodlari ko'rsatilganmi, bolalarning shaxsiy fazilatlarini qanday tarbiyalanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tashkil etiladigan sayrlar mazmunini ham kuzatib borish lozim.



Rejalar bilan tanishib qisqacha , mudira kimlarning ish rejasiga tuzatish va qo'shimchalar qilish lozim bo'lsa, o'sha tarbiyachilarni suhbatga chaqiradi. Eng avval oxirgi ikki hafta ichida tarbiyaviy ishlarning hisobga olib borilishi ko'rib chiqiladi. O'tgan vaqt ichida bolalar nimani o'rgangani, nimalarni yana o'rganish lozimligi hisobga olingan bo'lsagina, ish yaxshi rejalashtirilgan bo'ladi. So'ngra mudira reja yuzasidan aniqlangan kamchiliklarni tarbiyachilar bilan hamkorlikda tuzatadi. Shundagina mudira «tasdiqlayman» deb imzo qo'yish lozim. Axloqiy tarbiya bo'yicha pedagogik yig'ilishga tayyorlik ko'rishda bolalar axloqi, ularning tarbiyachilari va o'rtoqlari bilan o'zaro muomalasini o'rganish, pedagoglarning tarbiyaviy ish metodlari bilan tanishish maqsadida siz guruhlariga kiring. Ko'rdingizku xamma guruhlarda pedagoglar bolalarning o'zaro muomalasi, ularning inoqligi, yoshlarga gamxo'rlik qilishiga katta e'tibor qilishyapti. Tarbiyachilar ayrim bolalar axloqi misolida badiiy adabiyotdan foydalanadilar. Ayni vaqtda ular bolalarning faqat o'zlari bilan ishlayotgan, o'zlarining guruhidagi bolalarga gamxo'rlik qiladigan kattalargagina e'tibor berayotganini, o'g'il bolalar sizlar bilan kam do'stlashib, kam o'ynayotgani, ayrim bolalar ota- onalari bilan qo'pol muomalada bo'layotganini hisobga olmaydilar.

Pedagogik yig'ilishga masalani qanday qo'yish, pedagoglar ishini qanday asosda taxlil qilish, uni takomillashtirish yo'llarini belgilash endi sizga ravshan bo'lib qoladi.

Tarbiyachilar ishini kuzatish ko'pincha eng yaxshi tajribalarni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Bunday hollarda mudira bir tarbiyachining ishini, uning bolalar bilan olib borgan faoliyatini har tomonlama o'rganib, uzoq vaqt kuzatadi.

Xar ikkala tarbiyachining ishi kuzatilganda: shunday maqsadni mo'ljallash mumkin: ishda uzviy aloqa va izchillik bormi, ish kuni qanday o'tadi, har kungi mashg'ulotlarmi yoki guruhining har ikki tarbiyachisida rejimli paytlar bormi, aniqlanadi.



Sizning oldingizda barcha guruhlarda dasturining biror bir bo'limi bo'yicha ish qanday olib borilayotganligini aniqlash vazifasi turishi mumkin. Masalan, sanash bo'yicha. Ana shu maqsadda har bir guruhda shunday mashg'ulotlarni ko'rib , bu sizga tarbiyachilarning bo'yicha ishlashlarini aniqlash, tarbiyachilarning qiyinchiliklarini bilish va ularga metodik yordam berish yullarini belgilash imkonini beradi.

Shunday qilib, kuzatishdan maqsad har xil bo'lishi mumkin. Ammo guruhga ma'lum maqsad bilan kirish bu boshqa hech narsaga ahamiyat bermasa ham bo'ladi, degan gap emas. Kuzatishingizning maqsadi qanday bo'lishidan qat'i nazar, sizning e'tiboringiz pedagogik jarayonning ikki tomoniga: tarbiyachining axloqiga — uning metodi va usullariga hamda bolalar axloqiga — ularning javobi, xatti-harakati, emosiyasiga qaratilgan bo'lishi lozim. Ba`zan mudira faqat tarbiyachining faoliyatinigina kuzatib, bolalar faoliyatini jiddiy tahlil qilish lozimligini unutib qo'yadi. Bularni bir-biridan ajratgan holda, bola haqida o'ylamay, tarbiyachining metod va usullarini baholash mumkin emas. Tarbiyachilar bolalarga qanday ta'sir o'tkazgan, bu ta'sir ularda qanday javob va reaksiya hosil qilgan, qanday hissiyotlar uyg'ota olgan, ana shularga qarab baholamoq kerak.

O'rta guruhda odatdagidek tinchlik va tartib. Bolalar o'zlarini intizomli tutadilar .

Tarbiyachi ishini kuzatgan mudira uning bolalar axloqini ziyraklik bilan kuzatayotgani, vaqti-vaqti bilan bolalarga u yoki bu paytda o'zlarini qanday tutish kerakligini o'stirayotganini ko'radi. Tarbiyachining ovozi bosiq, topshiriqlari aniq. Ko'rinishidan hamma narsa yaxshi. Biroq bolalar bilan suhbatda mudira ishonch hosil qildiki, bolalar nima uchun o'zlarini boshqacha emas, shunday tutishlari kerakligini xamma vaqt ham tushunavermaydilar. «Nima uchun kitobni yotib ko'rish mumkin emas», «Nima uchun yotoqxonada po'lini osoyishta tutish kerak?» va hokazo. Bolalar savollarga, «Bizga T. I. shunday dedi», «T. I. xafa bo'ladi», deya tushunmay javob beradilar. Bolalar



bilan bo'lgan suhbat, ular axloqini kuzatish mudiraga tarbiyachining mutlaq buyruqlari bolalarni so'zsiz itoat qilishga majbur qilishi, ammo ularda ongli axloqni tarbiyalamasligini bilib olishga yordam beradi.

Yosh mudira birinchi bor guruhga kirib, tarbiyachi ishini kuzatganda, qanchadan-qancha hayajonga tushadi. Zarur bo'lgan hamma narsani, seza oladimi, kuzatilgan narsalarni to'g'ri baxolay oladimi? Chunki ba`zan boshlovchi mudiraning ish tajribasi tarbiyachinikidan ham, yosh jihatdan esa ba`zilaridan kichik bo'ladi. Ular na faqat katta tajribaga, balki bolalar tarbiya siga oid qator masalalar yuzasidan zarur tushunchalarga ham ega bo'ladi. Ular mudiraning ko'rsatmalarini qabul qiladimi? Uning maslahat va mulohazalariga quloq solarmikin?

Mudira tarbiyachi ishini kuzatishga hozirlik ko'rganda metodik ishlarning boshqa turiga tayyorlik ko'rganday jiddiy tayyorlanadi. Bu tayyorgarlik nimalardan iborat bo'ladi?

Avvalo siz kuzatish maqsadingizni «Tarbiya programmasi»- ga asoslanib belgilang. (Masalan, bolalarning ertalabki soatlarga mustaqilligi qanday tarbiyalangan?) So'ngra tarbiyaviy ishlar hisobi va plani bilan, albatta, tanishib chiqing. Bu sizga belgilangan masalani gruppada barcha tarbiyaviy ishlar bilan umuman bog'lab tahlil qilishingizga yordam beradi.

Yangi mudira o'zi uchun uncha katta bo'lmagan kuzatish plani tuzib olishi zarurdir.

Masalan:

Bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun gruppada sharoit qanday?

1. Bolalarning ertalabki soatlardagi mustaqillik ko'nikmalari nimalarda namoyon bo'ladi. Ular programma talablariga muvofiqmi?
2. Bolalar pedagoglarga qanday yordamlar so'rab murojaat qiladilar?
3. Bolalarning yordam so'rab qilgan iltimoslariga tarbiyachilar qanday javob beradi (yordam beradimi yoki bolaning o'zi bajarishi, o'rtog'iga murojaat qilishi yuzasidan maslahat beradimi va hokazo).



Bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda individual yondoshish qanday bo'lishi lozim? Bunday savollar ishga bo'lgan e'tiborni oshiradi. Bu savollarsiz bolalar axloqi yuzaki o'rganib, ko'zlangan maqsad amalga oshmaydi. Tarbiyachi ishini kuzatishga hozirlik ko'ril- ganda, batafsil suhbatlashib, u bolalar bilan planli ish olib boradimi, yo'qmi angshlash lozim. Agar siz gruppalardagi kuzatishlaringizni yozib borayotgan bo'lsangiz, kuzatish oldidan unga bir nazar tashlab, kuzatmoqchi bo'lgan tarbiyachining ishi yuzasidan ilgari taklif va mulohazalaringiz bo'lganmi-yo'qmi aniqlab oling.

Mudira guruhiga kirishi va kirishdan ko'zlagan maqsadi to'g'risida tarbiyachini ogohlantirishi zarurmi?

Mudira guruhga ogohlantirishsiz kirishni lozim deb bilsa, albatta kirishga xaqi bor. Bordi-yu, mudira tarbiyachiga: «Ertaga men sizning guruhingizga kiramam» desa, yomonmi? Tarbiyachi mashgulotga yaxshiroq hozirlik ko'radi. Bu esa juda yaxshi. Chunki gruppaga kirishdan maqsad faqat nazorat qilishgina emas, balki yordam berish hamdir. Yangi pedagogik bolalar bilan qanday tanishtirish mumkin?

Tarbiyachi xali ishga tushmagan bo'lsa ham, u allaqachon qo'g'irchoq teatri spektaklini tayyorlab qo'ygan. «Sizlarga murodjon mehmon bo'lib kelyapti. Stullarni qo'yib, joy-joylaringa o'tiringlar»,— deb e'lon qilinadi. Anqov sichqon haqidagi ertak boshlanadi. Parda orqasidan yangi tarbiyachi ko'rinib-ko'rinmay mo'ralaydi. Bolalarga qarab tabassum qiladi. Ular bilan birgalikda kuladi. U endi bolalarga yaqin. Ertasi kun guruhga kelganda esa bolalar uni quvnoq kutib oladilar. Tarbiyachiga bolalar bilan ishlash osonlashadi.

Teatr ko'rsatish o'rniga bolalar bilan birgalikda qiziqarli o'yin o'tkazish, qo'lbola o'yinchoq yasash, xullas, bolalarda zavqlanish, quvnoq kayfiyat ham uygotish mumkin.

Yosh tarbiyachi bilan reja ustida ishlaganingizda, undan bu rejadagi ertak aytib berish, she'r o'qish, didaktik o'yinlar yoki ertalabki gimnastikaga oid o'rinlarni hayotga qanday tadbiq etishni ko'rsatib berishni iltimos qiling. Xuddi o'sha



yerning o'zida tarbiyachining yo'l qo'ygan kamchiligini to'g'rilang, ishni yaxshilash yo'lini ko'rsating. Bu boshlovchi pedagogga katta amaliy yordamingiz bo'ladi.

Bu yordamingiz tarbiyachiga, ish jarayonida, ayniqsa birinchi kunlarda, qanchalik muhim! Agar siz o'z vaqtida yordam bermasangiz, xatolar kun sayin ko'payib boraveradi. Mana shuning uchun ham mudira dastlabki kunlarda yangi tarbiyachi mashg'ulot o'tkazayotgan guruhiga, uning o'rnini almashtiravermay, uning obro'yiga putur yetkazmay, tez-tez kirib turishi kerak.

Ayrim mudiralar o'zlarining guruhlarga kirib turishlarini pedagoglarning mustaqil ishiga xalal yetkazadi, ular mudiraning yordamiga ishonib, tashabbussiz, ba`zan esa bekor bo'lib qoladilar, deb o'ylaydi. Bunday mudira guruhga tez-tez kirmaydi, ammo ishning qanday borayotganligiga hamma vaqt ziyraklik bilan qarab boradi. Bolalar sayrini uzoqdan kuzat di. Tarbiyachi va bolalar ahvolini ayrim belgilar bo'yicha aniqlaydi. Kechqurun esa pedagogdan batafsil so'rab, unga maslahatlar bilan yordam beradi. Tarbiyachi guruhga o'rganib, ishni o'zlashtirib olgach, mudira guruhga kira boshlaydi.

Mudiraning eng yaxshi yordami —bolalar bilan qanday ishlash kerakligini ko'rsatish. Xech qanday maslahat, aytib berish, tushuntirish ko'rsatganchalik yordam berolmaydi.

Mana, yosh tarbiyachi, bolalarni uyushtirish, ayniqsa, uxlatishda juda qiynalayapti. Siz gruppaga kiringda, qanday bo'lmasin, tarbiyachi bilan suhbatlashib hozir men ko'raychi, bolalardan kimlar sekin va tinchgina yechinib uxlaydi»—deng. Siz o'zingiz va tarbiyachi nomidan talab qiling va shu bilan birga tarbiyachini bolalar bilan ohista, ammo talabchanlik bilan muomala qilishga o'rgating. Ertasi kun ertalabki gimnastika, yuvinish va nonushtani bolalar bilan o'tkazing. Har safar tarbiyachiga o'z usullaringizni tushuntiring. Ba`zan yosh tarbiyachini tajriba o'rganish maqsadida o'zingiz bilan birga tajribali pedagogning ishini kuzatishga taklif qiling. Bu guruh bolalari uyushgan va tinch, inoq o'ynashadi. Yosh tarbiyachiga bular o'z-o'zicha bo'ladiganday tuyulishi va





u «Bolalar bu yerda yaxshi deb o'ylashi mumkin. Tajribasiz xodimga katta hamkasbining sezilmas tomonlarini ko'rishga yordamlashing. Ana, u ikkita bola bilan o'yin uchun bayroqcha yasayapti, ammo guruhdagi hamma bolalarni ko'rib turibdi ham. Nigina Oliyaning qo'g'irchog'ini tortib olmoqda. Pedagog boshini sal qoldi sarak- sarak qiladi, qizcha buni tushundi. Avtoparkda mashina uchun janjal bo'lishiga. «Vohid,— dedi tarbiyachi, shkaftdan yana bitta mashina ol». Tinchlik o'rnatildi. Barcha bolalar pedagogning nazar-e'tiborida, buni bolalar ham his qilib turibdi.

Siz bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barcha tomonlariga, jumladan ularning musiqa o'rganishiga xam javobgarsiz. Bu sizni musiqa rahbariga ham metodik yordam berishga majbur qiladi. «Men bu ishni qila olamanmikin?»— deyishi mumkin mudira hayajonlanib. Chunki musiqadan maxsus tayyorgarlikka ega emas, kuylay olmaydi. U musiqaga rahbarlik qilishdan o'z-o'zini chetlashtiradi. Bunday bo'ladigan bo'lsa, musiqa rahbarining ishi nazoratsiz, ko'pincha maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarga bog'lanmay ham qoladi.

Agar o'zingiz musiqadan ma'lumotga ega bo'lmasangiz, musiqa rahbariga qanday qilib yordam berish kerak? Siz musiqa mashg'ulotlariga ham boshqa mashg'ulotlarga tayyorlik ko'rganday tayyorlik bilan muntazam ravishda kiravering. Dastur talablarini bilib olganingizdan keyin siz bolalarga musiqadan material tushunarli qilib o'rgatilyaptimi yoki bolalarga talab oshirilib yuborilyaptimi, bilib olishingiz mumkin.


Ushbu mashg'ulotning rejasi bilan mudira shubhasiz tanish. Endi belgilangan vazifa qanday bajariladi, dasturda materiali qanday tanlanganligini tekshirish lozim. Musiqa rahbarining tayyorligi bu bilangina emas, uning ijro etilishi, bolalar bilan suhbat, metodik usullari, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishida ham seziladi. Bularning barchasini bilib olish uchun mudiraga musiqadan maxsus tayyorgarlik kerakmi? Yo'q albatta. Musiqa



rahbarining kamchiliklarini tuzatish uchun unga yo'l ko'rsatadigan pedagog bu ishning o'zi kifoya.


Musiqqa rahbari bilan tarbiyachini kelishgan holda hamkorlikda ishlashga o'rgating. Ba`zan tarbiyachilarning musiqqa mashg'ulotlarida qatnashmay qoladigan holatlari ham bo'ladi: ular ishtirok etadilar, lekin bolalar faoliyatiga qo'shilmaydilar, kuylamaydilar (ashula aytishni o'rganmaganlar)» *bolalar* bilan raqsga tushmaydilar (raqsga tushishni bilmaydilar).

Musiqqa mashg'uloti ketyapti. Bolalar kuylashyapti. Ammo ular tez-tez adashib, qo'shiqni tartibsiz aytyaptilar. Tarbiyachi esa buni sezmaydi, faqat bolalarga birortasi sho'xlik qilmayaptimi, yo'qmi degan ma'noda xo'mrayib qo'yadi, xolos. Bu bilan u o'zini bolalardan chetlatadi. Holbuki, musiqqa mashg'ulotlarida bolalarda olam-olam quvonch va his hayajon uyg'onadi, bu quvonchga sherik bo'layotgan kattalarni ular o'zlariga yaqin oladilar.




XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mudira maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarishga kirishgach, uning mablag'i, hisob-kitobi masalasida nimalarni bilishi lozim? Kitobda bolalar muassasasi xo'jalik hayotining turli soxalari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy operasiya va hujjatlardan iborat zarur ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu ma'lumot maktabgacha ta'lim muassasasi smetasi yuzasidan ish yuritishda yordam beradi. Kitob maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi faoliyatining barcha formalarini har taraflama yoritishni maqsad qilib olmaydi. Uning vazifasi boshqa — yosh rahbar e'tiborini amalda qiyinchiliklar keltirib chiqaradigan eng muhim masalalarga jalb qilishdan iborat. Eng muhimi, yosh mudira: «Mamlakatimiz kelajagi — bolalar tarbiyalanayotgan maktabgacha ta'lim muassasasining rahbari. Bu men zavq-shavq, bilan, o'zbekistonda ishlashga, o'tish ham jismoniy, ham aqliy mehnatga, ijtimoiy va davlat hayotining turli sohalarida, fan va madaniyat sohasida aktiv faoliyatga layoqatli bo'lgan ongli va yuqori ma'lumotli bolalarni tarbiyalash demakdir. Ko'pchilik mudiralar maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarning ertalabki qabul qilinishini nazorat qiladilar, ammo har xil nazorat qiladilar. Ayrimlari bir chetda turib, ba'zan nimanidir yozib kuzatadi. Boshqalari kuzatibgina qolmay, bolalar qachondan qabul qilinayotganiga o'zlari ham qatnashadi. Injiq bolalar bilan gaplashadi. Ularni nima bilandir ovutadi. Bola kattalar bilan salomlashmayotgani yoki ota-onasi bilan xayrlashmayotganini sezsa, buni unga eslatadi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –20-29 b.
- 2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. –T.: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
- 3.Karimov I. A., “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” -T.: “Ma'naviyat”, 2008
- 4.Karimov I. A., O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.: , “O'zbekiston”, 1992. 90 bet
- 5.Karimov I.A. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “O'zbekiston” 1996 y.
- 6.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. –T.: O'zbekiston, 1997. -384 b.
- 7.Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni –xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin -Toshkent: O'zbekiston, 1998. –30 b.
8. Karimov I. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O'zbekiston”, 2000 y, 66 b.
9. Qodirov R. G'. “Musika psixologiyasi” T: Musika. 2005- yil 7-b
10. Sharipova G., Yakubova Sh. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musika o'qitish metodikasi Toshkent-Cho'lpon nashriyoti -2007 yil
11. Bola ma'naviyatini shakllantirish. (Yo'ldoshev J.tahriri ostida.) – Toshkent: Sharq, 2000. – 301 bet.
- 12.Bolalarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi. – Toshkent: Rahbar, 1998. –15 b.
- 13.Soipova D. Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent Musika nashriyoti 2009 yil
14. Soliyev N Musika savodi ailifbosi T.:G'ofur G'ulom 2003 y
- 16 Umarov.E. Estetika T.: “O'zbekiston”, 1995y., -210–bet
17. Ushinskiy K.D. Sbor, soch. —M.: L., 1988.
18. Shimanovskiy K. Tanlangan maqola va xatlar. L., 1993, 80–bet.
19. Sodiqova .Sh. «Maktabgacha pedagogikasi», Toshkent, 2010.
- 20 G.Sharipova, Sh.Yakubova. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida musika o'qitish metodikasi». Toshkent, 2007.
21. Internet ma'lumotlari
 - ✓ <http://www.uzedu.uz>
 - ✓ <http://www.rtm.uz> (dars ishlanmalar, nota variantlari)
 - ✓ <http://pedagog.uz>
 - ✓ <http://www.ziyonet.uz> (dars ishlanmalar, nota variantlari)



MUNDARIJA:

KIRISH.....	5
I-BOB. Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining rahbari	
1.1 Mudira tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.....	14
1.2 Mudira ishining mazmuni va uni rejalashtirish.....	19
II-BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasi murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi ro'li , faoliyati ko'p qirralidir	
2.1 Mudiraning jamoatchilik , mahalla qo'mitasi hamda ota-onalar bilan hamkorligi ishi mazmuni.....	30
2.2. Rahbarlik nazorat qilish va yordam berishdir.....	36
Xulosa	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	49



Urganch davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
“Bashlang’ich va maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
“Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
bitiruvchisi Allaqova Oliyajon Reyimberdievnaning
Bitiruv malakaviy ishiga



T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi **“Mudira maktabgacha ta’lim muassasasining raxbari sifatidagi ko’p qirrali faoliyati.”**

Malakaviy ishning hajmi 12 464 so’zdan iborat bo’lib tushuntirish qismi varaqlar soni 65 sahifadan iborat. Bitiruv malakaviy ish maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tarbiyaviy sifatlar tamoyillari, vositalarini asoslash hamda tamoyillari va undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish fundamental va amaliy tadqiqotlarni dasturlarini asoslash hamda ilmiy izlanishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning bosh bo’g’ini hisoblanadi. Shu sababli Mudira, tarbiyachilarni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tabiat sifatleri bo’yicha tarbiyalash va ularni egallashlari uchun mashqlar bajarib borishi zarur, shuningdek, bolalar imkoni boricha mustaqil ravishda tabiat haqida mashqlar bajarishni va malakalarini o’rganishlari kerak. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o’zgarishlar, yangilanish jarayoni va islohatlardan ko’zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish, shu tarzda xalq farovonligini ta’minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o’rin egallash, ta’lim-tarbiyaning to’g’ri, izchil yo’lga qo’yilishi bilan bevosita bog’liqdir. Talaba Allaqova Oliyajon Reyimberdiyevna bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yhatidan iborat qilib tayyorlagan. Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida keltirilgan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati, kirish qismida mavzuning dolzarbiligi, ishning maqsadi vazifalari, farazi keng yoritib berilgan.

Mazkur ishning 1-bobida **Mudira maktabgacha ta’lim muassasasining raxbari sifatidagi ko’p qirrali faoliyati bo’yicha ko’rsatmalar,**




2-bobida **Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining ko'p qirrali faoliyati bo'yicha shart-sharoitlar yaratish ko'rsatmasida** bayon qilingan.

Talaba Allaqova Oliyajon Reyimberdiyevna bitiruv malakaviy ishini bir qator Mudiraga aloqador bo'lgan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklaridan foydalanib yozgan.

Umuman olganda bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini yozish nizomiga muvofiq holda yozilgan. Ishni yakunlangan hisoblab, uni Ziyonet tarmog'iga joylashtirishga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

 **O. Xujaniyozova**

Urganch davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
“Bashlang’ich va maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
“Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
bitiruvchisi Allaqova Oliyajon Reyimberdievnaning
Bitiruv malakaviy ishiga


T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi **“Mudira maktabgacha ta’lim muassasasining
raxbari sifatidagi ko’p qirrali faoliyati.”**

Malakaviy ishning hajmi 12 464 so’zdan iborat bo’lib tushuntirish qismi varaqlar soni 65 sahifadan iborat. Bitiruv malakaviy ish maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tarbiyaviy sifatlar tamoyillari, vositalarini asoslash hamda tamoyillari va undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish fundamental va amaliy tadqiqotlarni dasturlarini asoslash hamda ilmiy izlanishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning bosh bo’g’ini hisoblanadi. Shu sababli Mudira, tarbiyachilarni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tabiat sifatleri bo’yicha tarbiyalash va ularni egallashlari uchun mashqlar bajarib borishi zarur, shuningdek, bolalar imkoni boricha mustaqil ravishda tabiat haqida mashqlar bajarishni va malakalarini o’rganishlari kerak. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o’zgarishlar, yangilanish jarayoni va islohatlardan ko’zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish, shu tarzda xalq farovonligini ta’minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o’rin egallash, ta’lim-tarbiyaning to’g’ri, izchil yo’lga qo’yilishi bilan bevosita bog’liqdir. Talaba Allaqova Oliyajon Reyimberdiyevna bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yhatidan iborat qilib tayyorlagan. Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida keltirilgan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati, kirish qismida mavzuning dolzarbiligi, ishning maqsadi vazifalari, farazi keng yoritib berilgan.

Mazkur ishning 1-bobida **Mudira maktabgacha ta’lim muassasasining**



2-bobida: "Mudira maktabgacha ta'lim muassasasining ko'p qirrali faoliyati bo'yicha shart-sharoitlar yaratish ko'rsatmasi ko'rsatilgan.

Talaba Allaqova Oliyajon Reyimberdiyevaning bitiruv malakaviy ishini Mudira va rahbarlik qilish metodikasiga aloqador bo'lgan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar va maktabgacha ta'lim darsliklaridan foydalanib yozgan.

Umuman olganda bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini yozish nizomiga muvofiq holda yozilgan. Ishni yakunlangan hisoblab, uni ziyonet tarmog'iga joylashtirishga tavsiya qilaman.



2016 yil « _____ »

Gurlenboeva Dilorom Urganch tumani 7-son
MTM mudirasi